




BIRGALIKDAGI SA’Y-HARAKATLAR TUFAYLI O‘ZBEKISTON – XITOIY MUNOSABATLARI YANGI DAVRDA STRATEGIK SHERIKLIK DARAJASIGA KO‘TARILDI

2-sentabr kuni Pekin shahrida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev va Xitoy Xalq Respublikasi Raisi Si Szinpinning rasmiy delegatsiyalar a‘zolari ishtirokidagi muzokaralari bo‘lib o‘tdi.



O‘zbekiston bilan Xitoy o‘rtasidagi barcha sharoitlarda strategik sheriklik munosabatlarini yanada mustahkamlash va amaliy hamkorlikni kengaytirish masalalari ko‘rib chiqildi.

Uchrashuv avvalida davlatimiz rahbari Xitoy yetakchisi va do‘st Xitoy xalqini G‘alabaning 80 yilligi hamda Shanxay hamkorlik tashkilotining Tyanszin shahridagi sammiti muvaffaqiyatli o‘tkazilgani bilan samimiy tabrikladi.

O‘zbekiston Prezidenti XXR Raisi Si Szinpinning global boshqaruv bo‘yicha tashabbusi o‘z vaqtida ilgari surilgani va dolzarb ahamiyatga ega ekanini yana bir bor ta’kidladi.

Davlat rahbarlari o‘tgan yillar davomida ikki tomonlama munosabatlar rivojida katta yutuqlarga erishilganini ta’kidladilar. Barcha darajalardagi aloqalar sur‘ati oshib borayotgani, siyosiy muloqot mustahkamlanib, muhim masalalar

yuzasidan tomonlar bir-birini qo‘llab-quvvatlayotgani alohida mamnuniyat bilan qayd etildi.

“Yagona Xitoy” siyosatini qo‘llab-quvvatlash hamda “uch yovuz kuch” — terrorizm, ekstremizm va separatizmga qarshi kurashish masalalarida O‘zbekistonning pozitsiyasi o‘zgarmas ekani tasdiqlandi.

Savdo-iqtisodiy, texnologik va moliyaviy-investitsiyaviy hamkorlik jadal rivojlanmoqda. O‘tgan yili tovar ayirboshlash



14 milliard dollardan oshdi, yil boshidan esa yana 23 foizga o‘tdi. Sanoat va qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini o‘zaro yetkazib berish orqali bu ko‘rsatkichni 20 milliardga yetkazish vazifasi turibdi.

Investitsiya loyihalari portfel 60 milliard dollardan ziyodni tashkil etmoqda. 2024-yilda umumiy qiymati 10 milliard dollardan ortiq 64 ta loyiha ishga tushirilgan. Mamlakatimiz hududlarida qo‘shma texnoparklar va maxsus industrial zonalar faoliyat yuritmoqda,

“BYD” elektromobillarini ishlab chiqarish kengaytirilmoqda va mahalliy lashtirish darajasi oshirilmoqda.

Tashrif arafasida biznes-forum muvaffaqiyatli o‘tkazildi. “Yashil” energetika va energiya samaradorligini oshirish, jamoat transportini modernizatsiya qilish va raqamlashtirish, pullik avtomobil yo‘llarini barpo etish, muhim minerallarni chuqur qayta ishlash, shuningdek, kimyo, suv va qishloq xo‘jaligi, turizm va

shaharsozlik sohaslarida istiqbolli loyihalar ishlab chiqilgan.

Eksimbank, Xitoy davlat taraqqiyot banki, “Ipak yo‘li” jamg‘armasi va boshqa institutlar bilan keng ko‘lamli sheriklik kengaymoqda. Eksimbank ko‘magida yaqinda Toshkentda Olimpiya shaharchasi qurib bitkazildi.

Davomi 2-betda

IKKI TOMONLAMA HAMKORLIKNING DOLZARB MASALALARI MUHOKAMA QILINDI

Pekin shahrida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev va Rossiya Federatsiyasi Prezidenti Vladimir Putinning uchrashuvi bo‘lib o‘tdi.

Suhbat avvalida Rossiya yetakchisi davlatimiz rahbari va O‘zbekistonning ko‘p millatli xalqini Mustaqillik kuni bilan samimiy tabriklab, farovonlik, barqaror taraqqiyot va ravnaq tiladi.

Ilgariroq bo‘lib o‘tgan oliy darajadagi muloqotlar chog‘ida erishilgan kelishuvlarni amalga oshirish nuqtayi nazaridan O‘zbekiston — Rossiya keng qamrovli strategik sheriklik va ittifoqchilik munosabatlarini

yanada kengaytirish hamda mustahkamlash masalalari ko‘rib chiqildi.

Savdo-iqtisodiy va investitsiyaviy hamkorlik sur‘atini saqlab qolishga qaratilgan muvofiqlashtirilgan chora-tadbirlarni qabul qilish muhim ekani ta’kidlandi.

Iqtisodiyotning ustuvor tarmoqlarida loyihalarni tayyorlash hamda amalga oshirishni jadallashtirish, hududlar o‘rtasida va tashkil etilgan qo‘shma sanoat

parklari doirasida kooperatsiya aloqalarini rag‘batlantirishga alohida e‘tibor qaratildi.

Gumanitar sohada, eng avvalo, madaniyat, san‘at, fan va ta‘lim yo‘nalishlarida samarali hamkorlik qilinayotgani katta mamnuniyat bilan qayd etildi.

O‘zbekiston va Rossiya yetakchilari xalqaro ahamiyatga molik masalalar yuzasidan ham fikr almashdilar.

O‘ZA

MAMLAKATIMIZ MAKTABLARI O‘QUVCHILARI VA USTOZ-MURABBIYLARIGA

Qadrli farzandlarim!
Hurmatli ustoz va murabbiylar!
Muhtaram ota-onalar!

Avvalo, siz, azizlarni yurtimizdagi 10 mingdan ziyod maktablarda O‘zbekiston mustaqilligining 34 yillik bayramiga uyg‘un holda o‘tayotgan Bilimlar kuni bilan chin qalbimdan samimiy muborakkob etaman.

Ushbu shukuhli ayyomda “Birinchi qo‘ng‘iroq”lar jarangi ostida ilk bor maktab ostonasiga qadam qo‘yayotgan 720 mingdan ortiq o‘g‘il-qizlarimiz va nabiralarimizni, ularning ota-onalarini alohida qutlab, o‘zinning eng ezgu tilaklarimni izhor etishdan g‘oyat mamnuman.

Hech shubhasiz, keyingi yillarda butun yurtimiz kabi maktablarimiz qiyofasi ham tubdan o‘zgarib, ular tom ma‘noda Yangi O‘zbekiston timsoliga aylanib borayotgani barchamizni cheksiz quvontiradi. Chunki maktab qanchalik obod va charog‘on bo‘lsa, jamiyat hayoti shunchalik farovon, mazmunli va ma‘rifatli bo‘ladi.

Shu ma‘noda, mamlakatimizda ta‘lim-tarbiya jarayonlari tobora takomillashib borayotgani, har yili ko‘plab yangi o‘quv maskanlari barpo etilayotgani, ularning moddiy-texnik bazasi mustahkamlanib, maktab ishi umumxalq harakatiga aylangani — keyingi davrda erishgan eng katta yutuqlarimizdan biri, desak, ayni haqiqatni aytgan bo‘lamiz.

Chindan ham, ko‘zlari ilmga havas va hayajon bilan chaqnaib turgan sizdek azm-u shijoatli yoshlarimizga yuksalish va kamolot, baxt va saodat eshiklarini ochib beradigan muqaddas dargoh — maktablarimiz ravnaqida biz xalqimiz, millatimizning yorug‘ kelajagini ko‘ramiz. Bugungi kunda o‘z oldimizga qo‘yayotgan katta-katta maqsadlarga erishishning asosiy omili, bosh kalitini, avvalo, ta‘limda, maktablarimizda, deb bilamiz.

So‘nggi yillarda o‘quvchi yoshlarimiz hurmatli ustoz va murabbiylari bilan birgalikda ana shunday yuksak e‘tiborni chuqur his etib, o‘qishda, ijodda, sportda, jamoat ishlarida muhim g‘alabalarni qo‘lga kiritayotgani bizga albatta qo‘shimcha kuch-g‘ayrat, ilhom va ishonch bag‘ishlaydi.

Ko‘plab maktab bitiruvchilari mamlakatimizdagi nufuzli oliy o‘quv yurtlari bilan birga xorijdagi yetakchi universitetlarga yuqori ball bilan o‘qishga kirayotgani, hayotda o‘z munosib o‘rmini topib, Yangi O‘zbekiston taraqqiyotiga ulkan hissa qo‘shayotgani hayotimizda maktabning, ustoz-murabbiylarning ahamiyati yanada ortib borayotganini ko‘rsatadi.

Ishonchim komil, siz, azizlar ana shunday ezgu an‘analarni munosib davom ettirasiz va yuksak bosqichga ko‘tarasiz.

Hech qachon unutmang, maktab — bu mo‘jiza, kitob, ustozlar o‘tadigan har bir dars — beqiyos xazinadir.

Oldingizga aniq maqsad qo‘yib, bor kuch-g‘ayratingiz, bilim va qobiliyatingiz bilan harakat qilsangiz, ko‘zlagan marralarga albatta yetasiz.

Bu yo‘lda sizlarga sihat-salomatlik, yutuq va zafarlar tilayman.

Yuqoridagi barchangizga muborak bo‘lsin!

Shavkat MIRZIYOYEV,
O‘zbekiston Respublikasi
Prezidenti

O‘QUV YILI “KELAJAK SOATI” BILAN BOSHLANDI

Yozgi ta‘til poyoniga yetdi. 2-sentabrdan bayramona bezatilgan ta‘lim muassasalari o‘quvchilarga quchoq ochdi. Birinchi qo‘ng‘iroq chalindi. Tinchlik, farovonlik hukm surgan farahbaxsh yurtida yangi o‘quv yili boshlandi.



Bugun, 3-sentabrdan akademik litseylarning barcha bosqich o‘quvchilari hamda oliy ta‘lim muassasalarining 1-bosqich talabalari mashg‘ulotlarga kirishadi. Ular uchun “Kredit ta‘limi tizimiga kirish” haftaligi va “Talabalikka bag‘ishlov” tadbirlari tashkil etiladi. 8-sentabrdan esa oliy ta‘lim muassasalarining boshqa kurs talabalariga darslar boshlanadi.

Bu yilgi “Birinchi qo‘ng‘iroq” tadbirlarida umumba‘lim maktablarining 1-sinfga o‘qishga qabul qilingan 740 mingga yaqin o‘quvchiga 12 nomdagi o‘quv qurollari jamlangan “Prezident sovg‘asi” tantanali topshirildi. Yangi o‘quv yili boshlanishi munosabati

bilan Prezidentimiz o‘quvchilar, ustoz va murabbiylarga tabrik yo‘lladi. Barcha maktabda ushbu tabrik o‘qib eshittirildi. Tabrikdagi “Chindan ham, ko‘zlari ilmga havas va hayajon bilan chaqnaib turgan sizdek azm-u shijoatli yoshlarimizga yuksalish va kamolot, baxt va saodat eshiklarini ochib beradigan muqaddas dargoh — maktablarimiz ravnaqida biz xalqimiz, millatimizning yorug‘ kelajagini ko‘ramiz. Bugungi kunda o‘z oldimizga qo‘yayotgan katta-katta maqsadlarga erishishning asosiy omili, bosh kalitini, avvalo, ta‘limda, maktablarimizda, deb bilamiz.

Davomi 3-betda

YUKSAL, ELIM!

Yodingdadir anduh to‘la allalaring,
Boshginangga balo paxta dalalaring,
Dalalarda mayib bo‘lgan bolalaring,
Bugun paxtadek toleyi oqsan o‘zing,
Yuksal, elim, baxti kulgan xalqсан o‘zing.

Haq so‘z aytib, atrofga ming qarar eding,
Kun ko‘rmasding, naq kuningni ko‘rar eding,
Yaratgandan ro‘shnoliklar so‘rar eding,
Kuning keldi — o‘z yurtingda shohsan o‘zing,
Yuksal, elim, sohibfarmon xalqсан o‘zing.

Haqsizlikka qadim duchor kelgan elsan,
“Haq berilmas, haq olinur” degan elsan,
Xalqparvarning qadrin yaxshi bilgan elsan,
Bel bog‘lading, ulug‘ yo‘lda haqsan o‘zing,
Ulug‘ini aziz tutgan xalqсан o‘zing.

Iqbol MIRZO,
O‘zbekiston xalq shoiri

Dunyo dunyo bo‘lib yaralgandan buyon,
Zamin koinotdan nur olgandan buyon,
Ma‘rifatning yo‘lida zo‘r karvon bo‘lding,
Iymon qo‘ng‘irog‘i taralgandan buyon.
Yarashgaydir oftob bo‘lib balqsang o‘zing,
Yuksal, elim, eng munosib xalqсан o‘zing.

Dunyo dunyo bo‘lib yaralgandan buyon,
Zamin koinotdan nur olgandan buyon,
Ma‘rifatning yo‘lida zo‘r karvon bo‘lding,
Iymon qo‘ng‘irog‘i taralgandan buyon.
Yarashgaydir oftob bo‘lib balqsang o‘zing,
Yuksal, elim, eng munosib xalqсан o‘zing.

BIRGALIKDAGI SA’Y-HARAKATLAR TUFAYLI O‘ZBEKISTON – XITOIY MUNOSABATLARI YANGI DAVRDA STRATEGIK SHERIKLIK DARAJASIGA KO‘TARILDI

Boshlanishi 1-betda

Hududlararo almashinuvlar faollashgani yuqori baholandi. Xitoy tajribasi asosida mamlakatimizda kambag‘allikka barham berishga qaratilgan qo‘shma tadbirlarni amalga oshirishda ekspertlik ko‘magi davom ettiriladi.

Innovatsion loyihalarni ilgari surish va mutaxassislar tayyorlash uchun O‘zbekiston — Xitoy sun‘iy intellekti rivojlantirish markazini tashkil etish taklif qilindi.

“Xitoy — Qirg‘iziston — O‘zbekiston” strategik temir yo‘li qurilishining amaliy bosqichi boshlangani mamnuniyat bilan qayd etildi.

Ilm-fan, tibbiyot, ta‘lim va turizm sohalaridagi sheriklikni kengaytirish zarurligi ta‘kidlandi. Mamlakatimizda Shimoli-g‘arbiy qishloq va o‘rmon universitetining filiali hamda Xalqaro matematika markazi ochildi. Sian neft universiteti filialini ochish to‘g‘risida bitim imzolandi. Pekin texnologiya instituti filialini ochish rejalashtirilgan.

Joriy yilda O‘zbekistonda ikkinchi Ta‘lim forumi o‘tkaziladi. Xitoy tilini o‘rganishni kengaytirish va o‘zbekistonlik yoshlarni o‘qitish uchun kvotalarni ko‘paytirish, Konfutsiy institutlari faoliyatini rivojlantirish qo‘llab-quvvatlandi.

Mamlakatimiz hududlarida energetika, mashinasozlik, sun‘iy intellekt, tibbiyot, qishloq xo‘jaligi sohalari uchun mutaxassislar tayyorlaydigan O‘zbekiston — Xitoy “Lu Ban ustaxonalari”ni tashkil etish ko‘zda tutilgan.

Sayyohlar almashinuvi o‘sishi uchun sharoit yaratish maqsadida aviaqatnovlar soni oshirilmogda, ikki mamlakat o‘rtasida vizasiz tartib joriy etildi.

Shu kunlarda Xitoy Milliy muzeyidagi katta ko‘rgazmada O‘zbekiston ham qatnashmogda. 2027-yilda Shanxay va Pekinda san‘at ko‘rgazmalarini o‘tkazish rejalashtirilgan.

Tashrif doirasida O‘zaro madaniyat markazlarini ochish to‘g‘risida tarixiy bitim qabul qilinadi.

Uchrashuvda xalqaro kun tartibi yuzasidan ham fikr almashildi. Birlashgan Millatlar Tashkiloti, SHHT, “Markaziy Osiyo — Xitoy”

formati va boshqa ko‘p tomonlama tuzilmalar doirasidagi muvofiqlashuv va o‘zaro qo‘llab-quvvatlashni davom ettirish muhimligi qayd etildi.

Muzokaralar yakunida O‘zbekiston yetakchisi Xitoy rahbarini mamlakatimizga tashrif bilan kelishga taklif etdi. Uchrashuv har doimgidek ishonch, ochiqlik va do‘stlik ruhida o‘tdi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev va Xitoy Xalq Respublikasi Raisi Si Szipinning Pekin shahrida bo‘lib o‘tgan muzokaralari yakunida imzolangan ikki tomonlama hujjatlarni almashish marosimi bo‘ldi. Shu jumladan:

— “O‘zbekiston — 2030” strategiyasi va “Bir makon, bir yo‘l” tashabbusini o‘zaro bog‘lash bo‘yicha hamkorlik dasturi;

— Madaniyat markazlarini o‘zaro ta‘sis etish to‘g‘risida bitim;

— Tibbiy xizmatlar sohasida hamkorlik to‘g‘risida bitim.

Bundan tashqari, tashrif doirasida quyidagi kelishuvlar ham imzolandi:

— O‘zbekistonga zemsnaryadlar (texnik kema) berish loyihasining ikkinchi bosqichini loyihalashtirish bo‘yicha;

— texnik-iqtisodiy hamkorlik to‘g‘risida;

— muvofiqlikni baholash sohasidagi hamkorlik to‘g‘risida;

— O‘zbekistondan Xitoyga qovun va bodom eksport qilishda fitosanitariya talablari to‘g‘risida;

— kosmik fanlar, texnologiyalar va kosmik faoliyat natijalaridan tinchlik maqsadlarida foydalanishda hamkorlik qilish to‘g‘risida;

— raqobat siyosati sohasidagi hamkorlik to‘g‘risida;

— inson resurslarini rivojlantirish sohasida hamkorlikni mustahkamlash bo‘yicha;

— raqamli iqtisodiyot sohasidagi hamkorlikni mustahkamlash bo‘yicha;

— Samarqand viloyati va Tyanszin shahri o‘rtasida sheriklik munosabatlarini o‘rnatish to‘g‘risida;

— O‘zbekiston Savdo-sanoat palatasi va Xitoy Xalqaro savdoga ko‘maklashish kengashi o‘rtasidagi hamkorlik to‘g‘risida.

Pekin shahriga rasmiy tashrif doirasida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning XXR Davlat

kengashi Bosh vaziri Li Syan bilan uchrashuvi bo‘lib o‘tdi.

Ko‘p qirrali amaliy hamkorlikni, eng avvalo, savdo-iqtisodiy, moliyaviy-investitsiyaviy va gumanitar sohalarida yanada kengaytirish masalalari ko‘rib chiqildi.

Uchrashuv avvalida davlatimiz rahbari XXR Davlat kengashi Bosh vaziri va butun Xitoy xalqini buyuk G‘alabaning 80 yilligi hamda Shanxay hamkorlik tashkilotining Tyanszin sammiti muvaffaqiyatli o‘tkazilgani bilan samimiy tabriklandi.

Ikki mamlakat yetakchilarining siyosiy irodasi va birgalikdagi sa‘y-harakatlari tufayli O‘zbekiston — Xitoy munosabatlari yangi davrda barcha sharoitlarda strategik sheriklik va ko‘p qirrali “yetuk” hamkorlik darajasiga ko‘tarilgani ta‘kidlandi.

O‘tgan yili tovar ayirboshlash 14 milliard dollarga yetdi va barqaror o‘sishda davom etmogda. Bu ko‘rsatkichni mahsulot yetkazib berishni ko‘paytirish, eksport va import mulatosibligini ta‘minlash orqali 20 milliard dollarga yetkazish imkoniyati borligi qayd etildi.

Shu maqsadda O‘zbekistonda standartlarni uyg‘unlashtirish va mahsulotlarni Xitoy talablari asosida sertifikatlash uchun qo‘shma Kvant metrologiya markazi va Mintaqaviy sanoat standartlashtirish markazini ochish taklif qilindi.

Qo‘shma loyihalar portfeli 60 milliard dollardan ziyodni tashkil etmogda.

Bu galgi tashrifga tayyorgarlik doirasida “yashil” energetika, geologiya, kimyo, noyob metallarni chuqur qayta ishlash, ko‘mir kimyosi, transport infratuzilmasini modernizatsiya qilish va raqamlashtirish, qishloq va suv xo‘jaligi, urug‘chilik, agrovoltaika sohalarida yangi loyiha takliflari shakllantirildi.

Ilmiy tadqiqotlar va istiqbolli startaplarni ilgari surish maqsadida O‘zbekiston — Xitoy sun‘iy intellekti rivojlantirish markazini tashkil etish taklif qilindi.

Xitoyning yetakchi bank-moliya institutlari bilan amaliy hamkorlikni kengaytirish masalalari ham ko‘rib chiqildi.

Kambag‘allikka qarshi kurashish bo‘yicha maxsus quyi qo‘mita yig‘ilishi va joriy yilda O‘zbekistonda o‘tkazilayotgan ikkinchi

Hududlar forumi yakunlariga yuqori baho berildi.

“Xitoy — Qirg‘iziston — O‘zbekiston” strategik temir yo‘lini qurish loyihasi bo‘yicha O‘zbekiston pudrat tashkilotlarini jalb etgan holda amaliy ishlar olib borilmogda.

Bu galgi tashrif doirasida Madaniyat markazlarini o‘zaro ochish to‘g‘risida bitim imzolangan mamnuniyat bilan qayd etildi.

Chunansi shahrida ilk bor Kasb-hunar ta‘limi forumi o‘tkazildi, ushbu yo‘nalishda “O‘zbekiston — Xitoy alyansi” tuzildi. O‘zbekiston hududlarida “Lu Ban ustaxonalari” ochildi.

Toshkent va Samarqanddagi Konfutsiy institutlari samarali faoliyat yuritayotgani ta‘kidlandi.

Tomonlar aviaqatnovlar sonini yanada ko‘paytirish va sayyohlar almashinuvi faollashtirish muhimligini qayd etdilar.

Yakunda Prezidentimiz XXR Davlat kengashi Bosh vazirini rasmiy tashrif bilan O‘zbekistonga kelishga taklif etdi.

Davlatimiz rahbari Xitoyga rasmiy tashrifning ishbilarmonlik dasturi doirasida ushbu mamlakatning yetakchi kompaniyalari rahbarlari bilan uchrashuv o‘tkazdi.

Tadbirda “China Gold”, “China Coal Resources”, “China Datang Corporation”, “Tianjin Rail Transit Group”, “Poly Changda”, “Tianjin Urban Construction”, “Jinchuan Group”, “China Synfuels”, “Jinchuan”, “ZT Wonderful”, “Mizuda”, “World Agriculture”, “Dongzhu Ecology” va boshqa kompaniyalar rahbarlari ishtirok etdi.

Prezidentimiz Xitoy biznesining O‘zbekistonga qiziqishi har doimgidek yuqori ekanini mamnuniyat bilan qayd etdi. O‘tgan yilning o‘zida investitsiyalar hajmi 10 milliard dollardan oshdi.

Uchrashuvda energetika, geologiya, qishloq va suv xo‘jaligi, kimyo, zargarlik sanoati, jamoat transportini modernizatsiya qilish, infratuzilmani rivojlantirish va turizm sohalarida kooperatsiya loyihalarini amalga oshirish istiqbollari ko‘rib chiqildi.

Prezident Shavkat Mirziyoyev Xitoyga rasmiy tashrifining ishbilarmonlik dasturi doirasida “China National Building Materials” (CNBM) kompaniyasi direktorlar kengashi raisi Chjou Yuysyanni qabul qildi.

Xitoyning CNBM kompaniyasi qurilish materiallari ishlab chiqarish, qayta tiklanadigan energetikani rivojlantirish, muhandislik-texnik yechimlarni taqdim etish bo‘yicha eng yirik konglomeratlardan biri sifatida dunyo kompaniyalarining TOP-500 taligiga kiradi.

Uchrashuvda kompaniya tomonidan nasos stansiyalarini modernizatsiya qilish, shamol va quyosh elektr stansiyalari, energiyani saqlash tizimlarini qurish, muqobil energetika obyektlari uchun butlovchi qismlar ishlab chiqarishni mahalliyashtirish kabi istiqbolli loyihalarni amalga oshirish rejalari ko‘rib chiqildi. Xitoy kompaniyasining yurtimiz sanoat korxonalarining energiya samaradorligini oshirish bo‘yicha dasturda ishtirok etishiga alohida e‘tibor qaratildi.

Erishilgan kelishuvlarni jadallashtirish va amalga oshirish uchun alohida “yo‘l xaritasi”ni qabul qilish topshirildi.

Shuningdek, davlatimiz rahbari “China National Petroleum Corporation” (CNPC) kompaniyasi direktorlar kengashi raisi Day Xoulyanni qabul qildi.

Xitoy milliy neft-gaz korporatsiyasi uglevodorod komashyosini qazib olish va qayta ishlash bo‘yicha yuqori texnologik loyihalarni mamlakat ichida va tashqi bozorlarda amalga oshirishga ixtisoslashgan dunyoning eng yirik energetika kompaniyalaridan biridir. Kompaniyaning bozor kapitallashuvi 200 milliard dollardan ziyod.

Uchrashuvda CNPCning mamlakatimizga kiritgan to‘g‘ridan-to‘g‘ri investitsiyalari hajmi 5 milliard dollardan oshgani ta‘kidlandi.

Xitoy kompaniyasi bilan investitsiyaviy hamkorlik portfelini kengaytirish va yer osti tabiiy gaz saqlash inshootlarini qurish, infratuzilmani modernizatsiya qilish, zamonaviy metrologik standartlar hamda innovatsion yechimlarni joriy qilish loyihalarini ilgari surish rejalari ko‘rib chiqildi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Pekin shahriga tashrfi doirasidagi ishbilarmonlik uchrashuvlarining navbatdagi “China National Nuclear Corporation” (CNNC) raisi Shen Yanfen bilan bo‘ldi.

Xitoy milliy yadro korporatsiyasi fuqarolik yadro dasturlari sohasidagi eng yirik davlat korxonasidir. Kompaniya uranni qidirish va boyitishdan tortib, Xitoy va xorijda atom elektr stansiyalarini qurishgacha bo‘lgan loyihalarning to‘liq janjirini amalga oshiradi.

Uchrashuv avvalida davlatimiz rahbari “CNNC” raisi va jamoasini Xitoy atom sanoatining 70 yilligi bilan qutladi.

Muloqot davomida O‘zbekistonda istiqbolli loyihalarni amalga oshirish masalalari muhokama qilindi.

Xitoy kompaniyasining zamonaviy texnologiyalar transferi va uran konlarini o‘zlashtirishdagi ishtiroki, istiqbolli maydonlarda geologiya-qidiruv ishlarini olib borish, shuningdek, tinch atom sohasida kooperatsiyani kengaytirish masalalariga alohida e‘tibor qaratildi.

Xitoyga rasmiy tashrifning ishbilarmonlik dasturi doirasida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev “Henan Investment Group” kompaniyasi bosh direktori Chju Xunbin bilan uchrashuv o‘tkazdi.

Xitoyning energetika va infratuzilmani rivojlantirish sohasidagi yetakchi kompaniyalaridan biri bo‘lgan “Henan Investment” qurilish, sanoat, energetika, ekologiya va sog‘liqni saqlash sohalarida loyihalarni amalga oshirmogda. Kompaniya aktivlari 50 milliard dollardan ziyod.

O‘zbekistonda ko‘mir konlarini o‘zlashtirishda ilg‘or texnologik yechimlarni joriy qilish, zamonaviy elektr stansiyalari, energiya saqlash tizimlarini loyihalashtirish va qurish, biomahsulotlar ishlab chiqarish, chiqindilarni qayta ishlash, toza energiya ishlab chiqarish bo‘yicha kooperatsiya loyihalarining amaliy jihatlati muhokama qilindi.

Davlatimiz rahbari Xitoy kompaniyasi ishtirokidagi loyihalarni o‘z vaqtida amalga oshirish uchun alohida “yo‘l xaritasi”ni qabul qilish bo‘yicha topshiriq berdi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Xitoy Xalq Respublikasiga rasmiy tashrfi davom etmogda.

O‘ZA

31-avgust — 1-sentabr kunlari Xitoyning Tyanszin shahrida Shanxay hamkorlik tashkilotiga a‘zo mamlakatlar Davlat rahbarlarining 25-kengashi va “SHHT plyus” formatidagi sammit bo‘lib o‘tdi.

O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ko‘p tomonlama tadbirlardagi nutqlarida SHHTga a‘zo davlatlar o‘rtasidagi hamkorlikni chuqurlashtirish va amaliy aloqalarni — iqtisodiyotdan gumanitar sohagacha kengaytirishga qaratilgan qator muhim tashabbuslarni ilgari surdi.

Rivojlanayotgan ko‘p qutbli dunyoda tashkilot rolini oshirish masalalari muhokama qilinar ekan, xalqaro ekspertlar bunday tashabbuslarni o‘z vaqtida va samarali, SHHT rivojiga va uning doirasidagi hamkorlikka qo‘shimcha sur‘at bag‘ishlashga qodir deb baholamogda.

Antonio ALONSO, San-Pablo universiteti professori, Markaziy Osiyo mintaqasi bo‘yicha mutaxassis (Ispaniya):

— O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Tyanszin shahrida bo‘lib o‘tgan SHHTga a‘zo mamlakatlar Davlat rahbarlari kengashi majlisidagi mazmunli va serqirra nutqi hamda undagi har bir taklif nafaqat deklarativ, balki amaliy xarakterga ega bo‘lib, hamkorlikni mustahkamlash va tashkilot faoliyati samaradorligini oshirishga qaratilgan.

Birinchidan, O‘zbekiston Prezidentining xavfsizlik sohasidagi tashabbuslarini alohida ta‘kidlash kerak. SHHTning Yadro xavfsizligi bo‘yicha deklaratsiyasini qabul qilishga chaqiriq O‘zbekistonning global barqarorlik masalalari bo‘yicha mas‘uliyatli pozitsiyasini aks ettiradi. Bu nafaqat BMT shafeligiga yadroviy qurollarni tarqatmaslik rejimini mustahkamlaydi, balki barqaror taraqqiyot manfaatlari yo‘lida tinch atom energetikasini rivojlantirish uchun zamin yaratadi. Bundan tashqari, “SHHT — Afg‘oniston” muloqot guruhi faoliyatini qayta tiklash taklifi strategik ahamiyatga ega. Ushbu muloqot guruhi ijtimoiy-iqtisodiy loyihalarni ko‘llab-quvvatlash bo‘yicha qo‘shma yondashuvlarni ishlab chiqish va afg‘on jamiyati bilan muloqot qilish imkonini beradi, bu esa, shubhasiz, mintaqaning umumiy xavfsizligiga ta‘sir qiladi.

O‘ZBEKISTON TASHABBUSLARI – SHHT ISTIQBOLIGA QO‘SHILGAN HISSA

Xalqaro ekspertlar O‘zbekiston Prezidentining Tyanszin shahrida bo‘lib o‘tgan Shanxay hamkorlik tashkiloti sammiti doirasidagi tadbirlardagi nutqlari haqida



uchun zamin yaratayotganini alohida ta‘kidlamogchiman.

Uchinchidan, gumanitar hamkorlik sohasidagi tashabbuslar ham juda muhim. Xalqaro xalq ijodiyoti festivalini o‘tkazish, “SHHT universiteti”ning onlayn-kampusini ishga tushirish, sayyohlik yo‘lagini rivojlantirish g‘oyalari e‘tirofga loyiq. Bular “xalq diplomatiyasi” institutini mustahkamlovchi, bilim, madaniy boyliklar almashinuvi uchun shart-sharoit yaratuvchi va ishtirokchi davlatlar o‘rtasida chinakam hamjihatlik tuyg‘usini shakllantiradigan loyihalaridir.

Prezident Shavkat Mirziyoyev nutqida xalqaro vaziyatning chuqur tahlili va amaliy yechimlar uzviy mujassamlashganini alohida ta‘kidlamogchiman. U zamonamizning asosiy muammolari — o‘zaro ishonch inqirozi, ko‘p tomonlama institutlarning zaiflashuvi, jahon iqtisodiyotining parchalanishini to‘g‘ri belgilab berdi va ularni bartaraf etishning aniq yo‘llarini taklif qildi.

Shu tariqa O‘zbekiston Prezidenti uzoqni ko‘ra olish, siyosiy yetuklik, adolat va hamjihatlik g‘oyalarga sadoqatini namoyon etdi. Uning tashabbuslari nafaqat SHHTning asosiy xalqaro tashkilot sifatidagi nufuzini mustahkamlash, balki butun Yevroosiyo makonini rivojlantirishning yangi yo‘nalishlarini belgilashga qodir.

Viktor KIM, Tojikiston Milliy fanlar akademiyasi Falsafa, siyosatshunoslik va huquq instituti ilmiy xodimi:

— O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning izchil, mantiqiy o‘zaro bog‘liq siyosati ichki siyosatda ham, tashqi siyosatda ham ijobiy natijalarga erishish imkonini berdi. Buni uning SHHT Davlat rahbarlari kengashi majlislarida so‘zlagan nutqlarida ham ko‘rishimiz mumkin.

U Tyanszinda O‘zbekistonning muammolari birgalikda hal etishga qaratilgan va rivojlanish istiqbollarini yaqqol namoyon qilgan tashabbuslarini ilgari surdi.

O‘zbekiston yetakchisi, avvalo, SHHTga a‘zo davlatlar o‘rtasidagi munosabatlarda “Shanxay ruhi” mavjudligini buyuk Konfutsiyning “O‘zingni qaror topirish, boshqalarga yordam berish, muvaffaqiyatga intilish, boshqalarning

Said ELBANNA, Qatar universiteti qoshidagi Tadbirkorlik va tashkiliy mahorat markazi direktori:

— O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Xitoy Raisi Si Szipin taklifiga binoan Xitoyga rasmiy tashrfi, shuningdek, Shanxay hamkorlik tashkilotiga a‘zo mamlakatlar Davlat rahbarlari kengashining Tyanszin shahrida bo‘lib o‘tgan majlisi va “SHHT plyus” formatidagi sammitida ishtirok etishi ekspert va tahliliy doiralr tomonidan strategik ahamiyatga ega voqea sifatida baholanmogda.

Qatar universitetining biznes sohasidagi mutaxassisi sifatida ishonch bilan ayta olamanki, O‘zbekiston Prezidentining Tyanszin shahrida bo‘lib o‘tgan “SHHT plyus” sammitidagi ishtirokiga alohida e‘tibor qaratish kerak deb o‘ylayman. Ushbu format SHHTning boshqa davlatlar va xalqaro tashkilotlar bilan muloqotini kengaytirish, shuningdek, O‘zbekistonning transport yo‘laklari, oziq-ovqat xavfsizligi va “yashil” energetika sohasidagi tashabbuslarini



ilgari surish uchun imkoniyatlarni ochib berishi shubhasiz.

Umuman olganda, Prezident Shavkat Mirziyoyevning Xitoyga tashrfi XXR bilan strategik sheriklikni yanada mustahkamlash, O‘zbekistonning mintaqaviy va global jarayonlardagi rolini oshirishga xizmat qiladi.

“ Prezident Shavkat Mirziyoyev zamonaviy iqtisodiyotning rivojlanish tendensiyalarini inobatga olgan holda, yana bir muhim ustuvor yo‘nalish — SHHT doirasida “yashil” transformatsiyalash sohasidagi sheriklikni kengaytirishga e‘tibor qaratdi.

“ O‘zbekiston rahbari, avvalo, SHHT ulkan makonining transport-tranzit salohiyatidan “Shimol-Janub” va “Sharq-G‘arb” yo‘nalishlarida foydalanish muhimligiga e‘tibor qaratadi. Shu bilan birga, Fors ko‘rfazi va Hind okeani portlariga chiqish imkoniyatiga ega Markaziy Osiyo hududi orqali janubiy yo‘nalishda yo‘laklarni rivojlantirishga urg‘u beriladi.

“Dunyo” AA

MUSTAQILLIK VA INSON QADRINI YUKSALTIRISHNING YANGI DAVRI



Jasur SALIHOV,
O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti
huzuridagi Davlat siyosati va boshqaruvi
akademiyasi rektori

Erkin va farovon jamiyat, yuksak rivojlangan davlat barpo etish maqsadlari faqat mustaqillik muhitida amalga oshadi. Istiqlolning kuchi ham uzluksiz sa’y-harakat hamda erishilgan yutuqlar asosida rivojlanish tendensiyasini barqarorlashtirish negizida namoyon bo‘ladi. Barqaror yuksalishga erishish esa strategik maqsadlar, islohotlar va iroda birligini taqozo etadi.

Yangi O‘zbekistonni barpo etishda 2017-2021-yillarda katta muvaffaqiyat bilan amalga oshirilgan Harakatlar, undan keyingi Taraqqiyot strategiyalari va bugungi kunda bajarilayotgan “O‘zbekiston — 2030” strategiyasida belgilangan 100 maqsad hamda Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning oqilona siyosati va kuchli irodasi hal qiluvchi rol o‘ynamoqda.

Yangi O‘zbekistonni barpo etish mohiyatan fenomenal xususiyatga ega bo‘lib, mustaqillikni asrash va mustahkamlashning alohida davri sifatida tarixga kiradi. Bu davrning xalqaro e’tirofqa sazovor bo‘lgan muhim jihat — “inson — jamiyat — davlat” uchligida inson omilining ustuvor mavqega egaligidir. Inson manfaatlarining ustuvorligi chuqur tahrir etilib, umumxalq referendumida ma’qullangan yangi tahrirdagi Konstitutsiyada o‘z ifodasini topdi. Davlatimiz rahbarining 2022-yil 20-iyun kuni respublika Konstitutsiyaviy komissiyasi a’zolari bilan uchrashuvda ilgari surgan taklifi asosida yangi tahrirdagi Konstitutsiyada “O‘zbekiston — ijtimoiy davlat” degan g‘oya mamlakatimiz Bosh qonunining 1-moddasida “O‘zbekiston — boshqaruvning respublika shakliga ega bo‘lgan suveren, demokratik, huquqiy, ijtimoiy va dunyoviy davlat”, deb belgilab qo‘yildi.

Prezidentimiz ta’kidlaganidek, “inson qadri” tushunchasi “ijtimoiy davlat” tushunchasi bilan chambarchas bog‘liq. Ijtimoiy davlat — ijtimoiy tafovutlarni kamaytirish, samarali ijtimoiy siyosat olib borishga asoslangan davlat modeli hisoblanadi.

Ijtimoiy davlat bu, eng avvalo, inson salohiyatini ro‘yobga chiqarish uchun teng imkoniyatlar, odamlar munosib hayot kechirishiga zarur sharoitlar yaratish, kambag‘allikni qisqartirish demakdir, deya ta’kidlagani davlatimiz rahbari. Shu bois, “ijtimoiy davlat” tamoyilining yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizda alohida norma sifatida kiritilgani davlatning “Inson qadri uchun”,

“Xalqni rozi qilish”, “Insonga e’tibor” va “Avval — inson, keyin — jamiyat va davlat” kabi ezgu g‘oya asosida olib borilayotgan ijtimoiy sohadagi xalqparvar va insonparvar siyosatga to‘liq mos keladi.

Insonni rivojlantirish, uning qadriini oshirish real taraqqiyot jarayoni sifatida o‘z mazmunida uch xususiyat — ortga qaytmas harakat, maqsad sari yo‘nalganlik va yangi qonuniyatlarga tayanish tendensiyalarini namoyon etadi. Inson qadriini oshirish tushunchasining yangi talqini ham oddiy tilda aytganda, shaxsni har tomonlama kuchaytirish, uning real salohiyatini ro‘yobga chiqarish negizida o‘zgartirish, o‘zi va jamiyatni yangilashga qodir insonlarni tayyorlash degan ma’nolarni ifoda etadi.

MAQSADLAR RO‘YOBI UCHUN

O‘zgarishlarga intilish azaldan insoniyatning taraqqiyot tamoyili bo‘lib kelgan. Inson, jamiyat va davlat kesimida o‘zgarish va o‘zgartirishga erishish jarayoni Prezidentimiz tomonidan qat’iyat bilan olib borilayotgan siyosatning ham nazariy, ham amaliy asosidir. Shu bois, davlatimiz rahbari yangi O‘zbekistonni barpo etish, jadal taraqqiyotga erishish, katta maqsadlarni ro‘yobga chiqarish uchun, eng avvalo, odamlarning dunyoqarashi, ma’naviyatini o‘zgartirish zarurligini ta’kidlamog‘da. Prezidentimizning quyidagi so‘zlari milliy taraqqiyotimizning o‘ziga xos formulasi hisoblanadi: “Tarix sinovlaridan o‘tgan haqiqat shuki, o‘zini o‘zgartirishga qodir bo‘lgan, vaqtini — imkoniyatga, imkoniyatni yutuqqa, yutuqni taraqqiyot poydevoriga aylantira olgan xalq — buyuk xalqdir.

Bunday xalq, hech shubhasiz, hayotni ham, ijtimoiy muhitni ham o‘zgartira oladi, ko‘zlagan murod-maqsadlariga albatta erishadi”.

SIFAT KO‘RSATKICHLARIDA NAMOYON BO‘LADI

Shavkat Mirziyoyev Prezident bo‘lib saylanishi bilanqo yangi O‘zbekistonni barpo etishda bosh tamoyil — xalq davlatga emas, balki davlat idoralari xalqqa xizmat qilishi kerak degan shiorni asosiy metodologiya qilib belgilagan edi. Mamlakatimizda so‘nggi yillarda izchil tarzda amalga oshirilgan transformatsiya jarayonlari nafaqat muhim miqdoriy natijalarga, balki sifat ko‘rsatkichlariga ham ega bo‘lib, quyidagi tendensiya, ya’ni barqaror xususiyatlarda namoyon bo‘lmoqda.

— ta’lim sifatining muhim ko‘rsatkichi sifatida maktab bitiruvchilarining deyarli 10 foizi xalqaro sertifikatlar bilan oliy ta’limga o‘qishga kirayotganida;

— dunyoning “top-300” universitetlarining bakalavr va magistratura bosqichlarida 1,5 ming nafar yoshlarimiz ta’lim olayotganida;

— o‘zini o‘zi rivojlantirish harakatining umummilliy harakat darajasiga ko‘tarilganida, mamlakatimiz pedagoglarining 10 foizidan ko‘prog‘i xorijiy tillarni bilishi, yo‘nalishi bo‘yicha yetukligi, turli tanlovlarda g‘oliblikni qo‘lga kiritayotgani hisobiga oyiga 10 million so‘mdan ko‘proq oylik olayotganida;

— xalq bilan mulotoqdan boshlab, boshqaruv tuzilmalarining barcha bo‘g‘inlarida ilgari barqaror amal qilib kelgan yopiqlik uslubini o‘rniga ochiqlik siyosati va xalqparvarlik tizimi shakllanganida;

— boshqaruv tuzilmalarida turli aholi vakillarining ishtiroki tubdan isloh etilib, xalq avvalgi passiv kuzatuvchilik maqomidan bevosita ishtirokchi, yaratuvchi maqomiga ega bo‘lganida, boshqachga aytganda, tom ma’nodagi yangi inklyuziv yondashuv qaror topganida;

— boshqaruv samaradorligini ta’minlash uchun zamonaviy “smart regulyatsiya”ni



USHBU MAQOLANI QORAQALPOQ TILIDA HAM O‘QISH UCHUN QR-KODNI SKANER QILING!



joriy etishga kirishilganida, ya’ni davlat boshqaruvida “smart regulyatsiya” bu faqat qonun chiqarish bilan ish bitkazish emas, balki raqamli platformalar orqali fuqarolarning ishtirokini ta’minlash, sun’iy intellekt yordamida boshqaruvni optimallashtirish, tizimli nazorat va samarali tartibga solish, intellektual va ma’lumotlarga asoslangan boshqaruv yo‘lga qo‘yilganida;

— boshqaruv strategiyasida odamlarni farovonlashtirish maqsadlari aniq manzilli o‘lcham va mezonlar negizida tarkib topganida va har bir fuqaro, har bir inson taqdirini yaxshilash vazifalari umumdavlat doirasidagi bosh ijtimoiy mo‘ljalga aylanganida.

Aynan ana shu transformatsion manzara mamlakatimizda jadal sur’atlar bilan amalga oshirilayotgan islohotlar markaziga, avvalo, inson kapitalini kuchaytirish, har bir shaxs salohiyatini yuksaltirishga ijtimoiy e’tiborni

yaxshilash katta ahamiyatga ega. Prezidentimiz tomonidan davlat siyosati borasida amalga oshirilayotgan islohotlar negizida ham inson qadriini oshirish, odamlarni rozi qilish, dastavval ta’limga, xususan, boshqaruvning istiqbolli kadrlarini tayyorlashga bo‘lgan davlat e’tiborini tubdan o‘zgartirish masalasi turibdi.

Davlatimiz rahbarining joriy yil 5-maydagi “Istiqbolli kadrlarni maqsadli tayyorlash hamda ularni davlat boshqaruvi va xizmatiga samarali jalb etish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmoni mohiyatan yangi avlod rahbar kadrlarini tayyorlash va malakasini oshirishda tub burilish bo‘ldi deyish mumkin. Chunki mazkur farmonda zamonaviy boshqaruv subyektlari faoliyatining quyidagi sakkiz asosiy jihati belgilab berildi.

Birinchi muhim jihat, yangi O‘zbekiston poydevorini qurish strategiyasini amalga

bo‘lgan “yordamchi” toifasidagi shaxslarning malakasini oshirish tegishli vazirlik, qo‘mita va agentliklar zimmasiga o‘tkazilib, akademiya faqat “Siyosiy” va “Boshqaruv” toifasidagi rahbarlarning malakasini oshirish vazifasi yuklatiladi.

Uchinchi muhim jihat, akademiya ilk bor bugungi kun boshqaruvi uchun o‘ta zarur bo‘lgan 5 ta mutaxassislik — “Hududlarni kompleks rivojlantirish”, “Davlat boshqaruvi”, “Inson resurslarini boshqarish”, “Davlat siyosati”, “Davlat moliyasini boshqarish” bo‘yicha magistratura ta’limi ochildi. Mazkur mutaxassisliklardan ikitasi, ya’ni “Inson resurslarini boshqarish” va “Hududlarni kompleks rivojlantirish” mohiyatan yangi bo‘lib, ta’limni hayot muammolariga yaqinlashtirish, fan, ta’lim va amaliyot uyg‘unligini ta’minlashi bilan e’tiborga loyiq.

To‘rtinchi muhim jihat, rahbarlarning o‘ylash, fikrlash, tafakkur qilish, ma’lumotlarni chuqur va tizimli tahlil eta olish salohiyatini maqsadli shakllantirish va takomillashtirish bo‘yicha institutsional yondashuvning joriy etilgani bo‘ldi.

Akademiyada “Siyosiy” va “Boshqaruv” toifasidagi barcha rahbarlar, shuningdek, magistratura va qayta tayyorlash kurslari tinglovchilari uchun zarur bo‘lgan fazilatlar, ko‘nikma va xususiyatlar, bir so‘z bilan aytganda, kompetensiyalarni shakllantirish va ularni xolis baholash asosidagi ta’limni yo‘lga qo‘yishdir. Ana shu vazifalarni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun akademiya dahliliy va tadqiqot tuzilmalari faoliyatini muvofiqlashtiruvchi kengashning maslahat-uslubiy platformasi sifatida Tahlil va tadqiqot sohasidagi kompetensiyalar markazi tashkil etildi.

Beshinchi muhim jihat, mamlakatimizda boshqaruv sohasi bo‘yicha kadrlar tayyorlash tizimidagi asosiy nuqson bartaraf etildi. Ya’ni boshqaruvda magistratura va oliy ta’limdan keyingi ta’lim shakllari bo‘lgani holda boshqaruv sohasi uchun asosiy ta’minotchi bo‘lgan bakalavriat bosqichida kadrlar tayyorlash ishlari mavjud emas edi. Farmonda mazkur muammoning ham yechimi belgilanib, bir yo‘la 6 ta nufuzli oliy ta’lim muassasasida sohalardagi jarayonlarni boshqaruv nuqtayi nazaridan teran idrok eta oluvchi tahlilchilarni tayyorlashga ruxsat berildi.

Oltinchi muhim jihat, barcha davlat xizmatchilari uchun vatanparvarlik, o‘z ona tili, tarixi va madaniyati uchun fidoyilik ko‘rsatishning majburiyat darajasiga

ko‘tarilgani bo‘ldi. Endilikda akademiya bo‘lag‘asidan o‘tgan barcha magistr, tinglovchi va doktorantlar uchun O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, O‘zbekiston tarixi va madaniyati, davlat tili, milliy o‘zlik, yuksak ma’naviyatlik, odob-xalq qoidalari bo‘yicha oladigan bilimlarining majburiy baholanish tizimi joriy etiladi.

Yettinchi muhim jihat, mamlakatimizda turli vazirlik, qo‘mita va agentliklar hamda viloyat va shahar hokimliklari tomonidan joriy etilgan boshqaruvga doir fanlar, mavzularni har kim nimani zarur deb bilsa, o‘shani o‘taverishi emas, balki aniq maqsadli va manzilli o‘quv-uslubiy tartiboti joriy etiladi. Endilikda bu jarayondagi ta’lim sifatini muvofiqlashtiruvchilik maqomi Davlat siyosati va boshqaruvi akademiyasiga yuklandi va boshqa idoralar tomonidan o‘tilishi mo‘ljallangan har bir fan va mavzular akademiya olimlari tomonidan o‘rganib chiqilgach, shu mavzu dasturining ilmiy va amaliy ahamiyati baholanganidan so‘ng joriy etish bo‘yicha qaror qabul qilindi.

Sakkizinchi muhim jihat, inson qadriini oshirish borasida davlat boshqaruvining bo‘lajak istiqbolli kadrlari uchun davlat tomonidan maqsadli tarzda ko‘rsatilishi rejalashtirilgan g‘amxo‘rlik bo‘ldi. Bundan keyin akademiyaning magistratura va qayta tayyorlash dasturlari bitiruvchilarining vazirlik, idora va davlat tashkilotlarida kasbiy va karyeraviy o‘shishi akademiyaning Vasiyluk kengashi tomonidan monitoring qilib boriladi. Shu tariqa bu holat ham ijtimoiylashdi.

Endi o‘shish, karyera uchun bosh qotirish har bir rahbarning shaxsiy ishi emas, balki davlat va jamoatchilik tomonidan baholanib, obyektiv qaror chiqariladigan real ishga aylanadi.

Bugungi kunda barcha sohalar yuksalib bormoqda. Ta’limning hamma bo‘g‘inlari, xususan, istiqbolli boshqaruv kadrlarini tayyorlashga bo‘lgan davlatimizning g‘amxo‘rligi va e’tiborini barchamiz his etib turibmiz. Hamma sohalarda va ayniqsa, ta’limning barcha bosqichlarida oylilik oshirildi. O‘quvchi va talabalarning ta’lim olish imkoniyatlari kengaydi.

Ijtimoiy imkoniyatlari cheklangan aholi qatlamlariga inklyuziv yondashuv qaror topdi. Aholi muammolari bilan ishlash tizimini yanada takomillashtirishga erishildi. Davlat boshqaruvining ochiqchligi va shaffofligini ta’minlash borasida keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirildi. Yoshlarimiz uchun oliy ta’lim olish imkoniyati kengaytirilmoqda.

Zero, insonni o‘zgartirish uchun unga kiritilayotgan investitsiya davlat siyosati darajasida bevosita bog‘liq. Buning asosiy sababi avvallari insonni intellektual-kasbiy rivojlantirishga emas, balki uning birlamchi, moddiy ehtiyojlarini qondirishga asosiy urg‘u berilganida.

Xullas, inson qadriini yuksaltirish borasida mohiyatan yangi tizim — yangi O‘zbekistonni barpo etish harakati keng quloq yozmoqda. Bu esa aholi vakillari hayoti va faoliyatini ilm-fan, yuksak ma’naviyat tamoyillari asosida yashash, innovatsion tafakkurga ega qilish, barchani institutsional tarzda uyushtirish, oddiy aktivlik holatidan proaktiv faoliyat yuritishga o‘tkazish, yakdil maqsadli ilg‘or millatga aylantirish strategiyasini amalga oshirishni nazarda tutadi.

Bir so‘z bilan aytganda, davlatimiz rahbari tashabbusi bilan bugun biz yagona xalq, yagona millat bo‘lib, ko‘zlagan yuksak maqsadlarimiz sari dadil bormoqdamiz. Vujudimizda, qonimizda ajdodlarimizdan meros buyuk qudrat jo‘sh urayotgan ekan, biz ezgu orzu va maqsadimiz bo‘lmish yangi O‘zbekistonni, albatta, bunyod etamiz. Jadal taraqqiyot yo‘lidan sobitqadam borayotgan yangi O‘zbekiston mustaqilligimiz tufayli har tomonlama obod va farovon, yuksak rivojlangan, erkin demokratik mamlakatga aylanishi shubhasiz.

Shukuh

Boshlanishi 1-betda

So‘nggi yillarda o‘quvchi yoshlarimiz hurmatli ustoz va murabbiylari bilan birgalikda ana shunday yuksak e’tiborni bilan his etib, o‘qishda, ijodda, sportda, jamoat ishlarda muhim g‘alabalarni qo‘lga kiritayotgani bizga albatta qo‘shimcha kuch-g‘ayrat, ilhom va ishonch bag‘ishlaydi.

Ko‘plab maktab bitiruvchilari mamlakatimizdagi nufuzli oliy o‘quv yurtlari bilan birga xorijdagi yetakchi universitetlarga yuqori ball bilan o‘qishga kirayotgani, hayotda o‘z munosib o‘mini topib, Yangi O‘zbekiston taraqqiyotiga ulkan hissa qo‘shayotgani hayotimizda maktabning, ustoz-murabbiylarning ahamiyati yanada o‘rtib borayotganini ko‘rsatadi.

Ishonchim komil, siz, azizlar ana shunday ezgu an’analarni munosib davom ettirasiz va yuksak bosqichga ko‘tarasiz.

Hech qachon unutmang, maktab — bu mo‘jiza, kitob, ustozlar o‘tadigan har bir dars — beqiyos xazinadir” degan jumlarlar har bir o‘quvchini to‘lqinlantirgani, qadrdon maktabiga mehrini yanada ziyoda etadi.

— O‘quv yili boshlanishiga bag‘ishlangan tadbirlarni o‘tkazishda, avvalo, ta’lim tashkilotlarining soya-salqin maydonlari

tanlandi, o‘quvchilar xavfsizligini ta’minlash, maktab hududiga avtotransport vositalarini kiritimaslik chorasi ko‘rildi. “Mustaqillik darsi” va “Kelajak soati” mashg‘ulotlarini o‘tishda pedagoglar “milliytarbiya.uz” platformasidan foydalandi, — deydi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligining boshqarma boshlig‘i Azamat Kamolov.

Xalqaro va respublika miqyosida o‘tkazilgan harbiy-vatanparvarlik tadbirlari, sport musobagalarlari hamda tanlovlarda yuqori natijaga erishgan o‘quvchilar e’tirof etildi.

— Biz, pedagoglar uchun ulkan mas’uliyat bilan ishga kirishiladigan qizg‘in sentyabr oyi ham boshlandi. Ko‘p sonli o‘quvchilarimizni tantanali kutib oldik. Tadbirlarimiz belgilangan yo‘riqnomaga asosida juda chiroyli o‘tdi. O‘qituvchilarimizning barchasi “Vatan uchun, millat uchun, xalq uchun!” shiori ostidagi “Kelajak soati” darsida alohida tayyorgarlik, ko‘tarinki ruh bilan qatnashdi. 1-sinfga qabul qilingan 175 o‘quvchimizga

“Prezident sovg‘asi”ni mahalliy hokimliklar, faol jamoatchilik vakillari hamda ota-onalar ishtirokida tantanali topshirdik, — deydi Shayxontohur tumanidagi 102-maktab direktori Ra’no Mirzajonova.

Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi ma’lumotlariga ko‘ra, 2025/2026-o‘quv yili 10 ming 200 ga yaqin umumta’lim maktabida 6 million 700 mingdan ziyod o‘quvchi ishtirokida boshlandi. Tantanalı tadbirdan so‘ng barcha sinf o‘quvchilari sinf rahbarlari bilan “Kelajak soati” mashg‘ulotiga yo‘l oldi. O‘qituvchilar o‘tgan o‘quv yilida umumiy o‘rta ta’lim maktablarini tugatgan 451 ming bitiruvchidan 115 mingdan ortig‘i davlat oliy ta’lim muassasalariga talabasi bo‘lganini o‘quvchilariga faxr-iftixor bilan aytib berdi. Joriy yil barcha xalqaro fan olimpiadalarida terma jamoamiz tarixdagi eng yaxshi natijalarga erishganiga urg‘u berildi. Xususan, 57-xalqaro kimyo olimpiadasida 2 oltin va 2 kumush medalni qo‘lga kiritganimiz, Xalqaro matematika olimpiadasida 115

davlat orasida 27-o‘rinni egallaganimiz, fizika, biologiya, informatika, umuman, fan olimpiadalarida erishgan yuqori natijalarimiz alohida e’tirof etildi. O‘quvchilar olimpiada g‘oliblarining qariyb bir milliard so‘mgacha pul mukofoti olayotgani haqiqat ekanini havas va hayrat bilan tingladi. Ayniqsa, futbol bo‘yicha O‘zbekiston milliy terma jamoasi o‘z tarixida ilk bor jahon chempionatiga yo‘llanmani qo‘lga kiritganini muallimlardan eshitish ertamiz egalarida yana bir karra milliy g‘urur uyg‘otdi.

Farzandini birinchi marta maktabga olib borgan ota-onalar esa partalar, zamonaviy xonalar, umuman, yaratilgan shart-sharoit bilan tanishdi.

— Qizim 1-sinfga bordi. “Prezident sovg‘asi”ni olgach, biz, ota-onalar sinfxonani ko‘rish uchun kirdik. Barcha sharoit yetarli. Chiroyli, yorug‘ xona bolalar kayfiyatini ko‘taradigan, zavq beradigan tarzda bezatilgan, bilim olishga shay qilib qo‘yilgan. Bizning davrimizda bunaqangi sharoitlar bo‘lmagan.



“Prezident sovg‘asi” ham olmaganmiz. O‘quv formalari ham serob. Xullas, bugungi avlod har tomonlama baxtiyor, faqat o‘qib-o‘rgansa bo‘ldi, — deydi Toshkent viloyatida yashovchi Aynura Erkinova.

Mamlakatimizda ta’limning barcha bosqichi jadal taraqqiy etyapti. Har o‘quv yili turfa yangiliklar, ilg‘or tajribalar bilan boshlanadi. O‘qituvchi ham, o‘quvchi ham ko‘tarinki kayfiyatda, yangi g‘oyalalar,

maqsadlarga otlangan holda maktab ostonasiga qadam qo‘yadi. Umid qilamizki, yangi o‘quv yilining shukhi, “Birinchi qo‘ng‘iroq” tadbirlari zavqi, “Kelajak soati” darsi ilhomini ertamiz egalarini o‘quv yili yakuniga qadar tark etmaydi.

**Munojat MO‘MINOVA,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri**

Iroda TOSHMATOVA,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri

Yurtdoshlarimizni yagona maqsad yo‘lida birlashtirayotgan yirik loyiha — “Tashabbusli budjet”ning joriy yilgi 2-mavsumi ham nihoyasiga yetdi. Loyihaning 22-31-avgust kunlari davom etgan ovoz berish bosqichi, ayniqsa, qizg‘in kechganiga guvoh bo‘ldik. Ovoz beruvchilar ham, targ‘ibotchilar ham doimgidek faollik ko‘rsatdi. Nihoyat, 1-sentabr — davlatimiz mustaqilligining 34 yilligi sanasida g‘olib loyihalar e‘lon qilindi.

Bu bayramona kayfiyatga ko‘tarinkilik bag‘ishlab, xalqimizni eng ulug‘, eng aziz ayyomda yanada birlashtirdi. G‘oliblar ro‘yxati “Ochiq budjet” portalida e‘lon qilinch, yutib chiqqan loyihalar tashabbuskorlari g‘alabani kamay-sunay sadolari ostida raqsga tushib nishonladi. Ijtimoiy tarmoqlar kuzatuvchilari ham ularning quvonchiga sherik bo‘lib, yaqinlari, mahalladoshlari, qo‘yngki, shu Vatan taraqqiyotiga hissa qo‘shishni maqsad qilgan har bir yurtdoshini samimiy qutladi.

Boisi, “Tashabbusli budjet” bugun chin ma’noda xalqni bir maqsad atrofida birlashtirayotgan ijtimoiy harakatga, odamlarning o‘zaro yakdilligi ramziga aylandi. O‘z hududidagi muayyan muammo yechimi yo‘lida yakdil harakat qilayotgan aholi xursandligini ham birga nishonlamoqda. Endi ular taklif etgan loyiha uchun davlat budjetidan belgilangan mablag‘ ajratiladi. Buning ortidan yo‘llar ta‘mirlanadi, yangi bino-inshootlar quriladi, eskirib qolgan ijtimoiy soha obyektlari ta‘mirlanadi.

Loyiha boshlangandan bugungacha shunday bo‘lib kelyapti — odamlar o‘z hududidagi biror muammoni loyiha sifatida taklif etadi, g‘olib topilsa, ajratiladigan mablag‘ evaziga masala yechiladi. Ahamiyatlisi, mablag‘ning to‘g‘ri yo‘naltirilib, oxiriga yetishini ham odamlarning o‘zi nazorat qilaypti. Shu sabab loyihaga ishonch ham, qiziqish ham yil sayin ortib bormoqda. Talabgorlar va tashabbuslar soni ham shunga yarasha.

“Tashabbusli budjet”ning joriy yilgi 2-mavsumiga 15-iyulda start berilgan edi. Bir necha bosqichda davom etgan loyihaning bu galgi

mavsumida 11 milliondan ortiq ovoz berildi. Iqtisodiyot va moliya vazirligi ma‘lumotiga ko‘ra yakunda 2332 ta loyiha g‘olib deb topilib, 3,2 trillion so‘m ajratildi.

Eng kami 31 ta

Joriy mavsumda ham bir loyiha uchun eng yuqori qiyamat 1 milliard 500 million so‘mni tashkil etdi. Qashqadaryo viloyati Chiroqchi tumanidan qo‘yilgan loyihaga ana shuncha mablag‘ ajratildi. U yurtimiz bo‘yicha eng ko‘p — 18 ming 17 ta ovoz to‘plagan. Sherzod Jumanov tomonidan kiritilgan mazkur loyihadagi ichki yo‘llarni ta‘mirlash nazarda tutilgan. Ko‘chalarni asfaltlash, piyodalar yo‘lakchasi va yo‘l o‘tkazgichlar qurish taklifi berilgan.

O‘tgan mavsumda g‘olib loyihalar orasida eng kam to‘plangan ovoz 26 tani tashkil etgan edi. Joriy yilgi mavsumda esa eng kam — 31 ta ovoz bilan g‘olib bo‘lgan loyiha bor. Ohangoran shahridan qo‘yilgan mazkur loyiha doirasida Umid mahallasida bolalar maydonchasi qurish tashabbusi ilgari surilgan. Buni qarangki, ozgina ovoz bilan ham g‘olib bo‘lgan mazkur loyiha uchun 150 million so‘m ajratildi. Demak, hudud aholining harakati besamar ketmadi. Ular ana shu tashabbusni ilgari surib, kichik bo‘lsa-da muammoning yechimiga befarq bo‘lmagan quvonarli. Vaholanki, turmushimizdagi farovonlik shu kabi kichik muammolarni hal etishdan boshlanadi.

Umuman, “Tashabbusli budjet”dagi g‘olib loyihalarining aksariyatini ichki yo‘llarni ta‘mirlash, umumta‘lim maktablari va sog‘liqni



Joriy mavsumdagi yana bir e‘tiborli jihat — ayrim loyihalarga ovoz berish bosqichi belgilangan sanada emas, balki kechroq o‘tkazildi. Masalan, Oltinko‘l va Ulug‘nor tumanlarida saralashdan o‘tgan loyihalarga ovoz berish 29-avgustdan boshlandi.

saqlash muassasalarini ta‘mirlash hamda moddiy-texnik bazasini rivojlantirish kabilar tashkil qiladi. Tashabbusi eng ko‘p g‘olib bo‘lgan hududlar uchligini esa Farg‘ona, Toshkent va Samarqand viloyatlari egallab turibdi.

Ammo g‘oliblikni qo‘lga kiritish oson bo‘lmaganini ishtirokchilar yaxshi biladi. Ijtimoiy loyiha ko‘lami kengaygani sari taklif va tashabbuslar ham ko‘payib, raqobat kuchayib borayotir. “Tashabbusli budjet”ning joriy yil 2-mavsumida 22 ming 623 ta taklif kelib tushgani, shundan 18 ming 656 tasi saralash bosqichidan o‘tkazilgani buning isboti. So‘nggi ovoz berish bosqichidan keyin esa 2332 ta loyiha g‘olib deb topilgan.

Aslida, bu sog‘lom raqobatni ta‘minlab, shaffoflikni yanada oshiradi. Boisi, loyihaning barcha bosqichida bevosita xalqimizning o‘zi ishtirok etadi. Davlat tashkilotlari yoki mutasaddi korxonalarning ishtiroki, ta‘siri bo‘lmaydi. Belgilangan mablag‘ ham qisqa muddatda ajratiladi. Kiritilgan barcha loyiha, ularga berilgan ovozlar va ajratiladigan pulning hammasi shaffof tizim — “Ochiq budjet” portalida ko‘rinib turadi.

Majburiylik aniqlangan loyihalar chetlatildi

“Tashabbusli budjet” haqiqatan odamlarni birlashtiradi. Masalan, mahallamizdagi biror kishi barchamizga tegishli masalani loyiha sifatida taklif etar ekan, unga befarq qarab tura olmaymiz. O‘z hududimiz uchun ovoz berishga intilamiz. Ammo bir mahalla aholisining ovozi yetarli bo‘lmisligi mumkin. Shunda yaqinlarimiz, tanish-bilishlarimizni ham xayrli ishga targ‘ib qilamiz. Bir qarashda buning yomon tomoni yo‘q. Biroq...

Hatto “Tashabbusli budjet”ning ovoz berish bosqichi boshlanishi bilan ovoz berishning turli usullaridan foydalanish holatlariga duch kelishga o‘rganib qolganmiz. Har bir ovoz uchun nimadir ochiq-oydin taklif qilinadi. Loyihaning o‘tgan yillardagi mavsumi bu borada e‘tirozlarga sabab bo‘lgan edi. Ko‘proq ovoz to‘plashga urinish tabiiy hol, biroq bu intilish majburiy ovoz berishga undash, noqonuniy xatti-harakatlarga sabab bo‘lmisligi lozim.

Loyiha takomillashtirilgani sari bunday holatlarga chek qo‘yish choralarini ham kuchaymoqda. Masalan, 2024-yildan “Bir fuqaro — bir ovoz” tamoyili joriy etildi. Bu fuqaroning nomida nechta SIM karta bo‘lsa ham bir mavsumda faqat bir marta ovoz bera olishini anglatadi. Shu kabi qator choralar natijasi joriy yilgi mavsumda sezildi. Gap shundaki, ovoz berish bosqichi bu gal ancha tartibli, ortiqcha muammo va e‘tirozlarsiz

o‘tganini ko‘plab yurtdoshlarimiz kuzatgan bo‘lsa ajab emas.

Qolaversa, loyiha doirasida majburiy ovoz berishga jalb etish masalasi ham jiddiy nazoratga olindi. Bunday holatlar to‘g‘risida xabar berish uchun ishonch telefoni ishga tushirildi. Bu haqda

jarayoni doirasida majburiy ovoz berishga jalb etish esa majburiy mehnat sifatida tasniflanishi belgilangan va bunga jiddiy choralar ko‘riladi.

Masalan, “Tashabbusli budjet”ning joriy yilgi 2-mavsumi uchun ovoz berish jarayoni davomida ijtimoiy tarmoqlarda Jizzax davlat



Iqtisodiyot va moliya vazirligi internet orqali zarur ma‘lumotlarni taqdim etib bordi.

Prezidentimizning tegishli qarori bilan tashabbusli budjetlashtirish jarayoni doirasida budjet tashkilotlarining rahbarlari xodimlarga majburiy ovoz yig‘ish bo‘yicha topshiriq berishi taqiqqlanadi. “Tashabbusli budjet”

pedagogika universiteti hamda Qiziltepa tumanidagi tibbiyot tashkilotlarida xodimlarni majburiy ovoz berishga undash holatlari yuzasidan xabarlar tarqaldi. Mutasaddilar vaziyatni bee‘tibor qoldirmagan. Iqtisodiyot va moliya vazirligi xabariga ko‘ra mazkur holatni atroflicha o‘rganib chiqish hamda holat

Ilk marta sabzavotchilik yo‘nalishi bo‘yicha fermer xo‘jaligi tashkil etganimda ko‘pchilik ajablangani. Boisi, qishloqdagi deyarli barcha xonadonlarda o‘zlari sabzi-piyozdan tortib pomidorigacha yetishtiradi. Kamdan kam hollarda bozordan poliz mahsulotlarini sotib oladi. Shunga bo‘lsa kerak, biz tomonlarda biror fermer xo‘jaligida bunday ekinlar ekilmagan. Asosan, paxta va g‘allaga ixtisoslashgan. “Ertangi kunda xo‘jalikda yetishtiriladigan sabzavotlarni bu atrofda aholiga sotish muammo bo‘ladi”, deya ayrimlar bu yo‘ldan qaytarmoqchi ham bo‘ldi. Ammo rejaralarim katta va ishonchli edi. Shu bois, ortga qaytishni xayolimga ham keltirmaganman.



Sherzod MAHMATMURODOV,
Qamashi tumanidagi “Nurmanova Xurshida” sabzavotchilik fermer xo‘jaligi rahbari, “Shuhrat” medali sohibi

ORTGA QAYTISHNI XAYOLIMGA HAM KELTIRMAGANMAN

Maqsad sari oldinga intildim. Ochig‘i, birinchi yili qilgan mehnatlarim unchalik samara bermadi. Qishloq odamlarining gap-so‘zi yanada ko‘paydi. Birov u dedi, yana biri boshqa yo‘nalishda ishlashni maslahat berdi. Ayrimlari to‘g‘ri tushuntirgan bo‘ldi. Lekin bunga e‘tibor bermadim. Izlanib, surishtirib qishloqda hali hech kim ekin ko‘rmagan brokoli karami niholini topib keldim. Hech ikkilanmasdan ekishni boshlab yubordim. O‘sha yili Surxondaryoda bo‘yicha tajribali dehqonlardan malaka oshirdim. Agrotexnik tadbirlarini yaxshi o‘rganib olganim sabab o‘zim agronomlik qilib bordim. Natija yomon bo‘lmadi.

Ikkinchi yildan boshlab eksport qilishga kirishdik. Men aslida faqat o‘zimning bozorga mahsulot chiqaraman deb yurgandim. Lekin nafaqat o‘zimizda, balki chet elga ham bemalol eksport qilish uchun keng imkoniyatlar yaratilgan ekan. Bundan faqat foydalanishda ikkilangandik. Endi esa barchasi o‘z iziga tushdi. Boshida kamroq savdo qilgan bo‘lsak, asta-sekin ko‘paytirib boryapmiz. Birinchi yili brokoli karamidan yuz ming dollarlik eksport qildik. O‘tgan yili esa bu ikki yuz ming dollarga chiqdi. Joriy yilda yanada yuqorilash niyatidamiz.

Bugun fermer xo‘jaligimizda 5 nafar doimiy, 60 nafar mavsumiy ishchi mehnat

qiladi. Keyingi yildan yana ish o‘rinlari ochiladi. Sababi qo‘shimcha joylarga ekin ekish ishlari boshlab yuboriladi. Bundan tashqari, yana bir qator yangi loyihalarni amalga oshirishga bel bog‘laganmiz.

Yaqinda tadbirkorlar kuni munosabati bilan davlatimiz rahbarining tegishli farmoniga ko‘ra yuksak mukofot — “Shuhrat” medali bilan taqdirlandim. Bundan ko‘sim tog‘dek yuksaldi. Qilgan mehnatlarim uchun katta rag‘bat bo‘ldi, desam mubolag‘a bo‘lmasa kerak.

Rosti, quvonchim haligacha ichimga sig‘mayapti. Ko‘ksimga taqilgan medalga qarab, boshqalar havas-la boqqani bu — faxr.

o‘z tasdiq‘ini topsa ovoz berish bosqichidan chetlatish yoki loyiha g‘olib deb topilsa, g‘oliblar ro‘yxatidan chiqarish yuzasidan tegishli tuman xalq deputatlar kengashiga taqdimnoma yuborilgan.

Joriy mavsumdagi yana bir e‘tiborli jihat — ayrim loyihalarga ovoz berish bosqichi belgilangan sanada emas, balki kechroq o‘tkazildi. Masalan, Oltinko‘l va Ulug‘nor tumanlarida saralashdan o‘tgan loyihalarga ovoz berish 29-avgustdan boshlandi.

Gap shundaki, avvalroq ushbu tumanlarda loyihalar asossiz rad etilgani bo‘yicha e‘tirozlar bo‘lgan. Iqtisodiyot va moliya vazirligi tomonidan yuborilgan so‘rovlar asosida loyihalar qayta ko‘rib chiqilgach, Oltinko‘l tumani fuqarolari taklif etgan 116 ta loyihaning 93 tasi, Ulug‘nor tumanidan esa 73 ta loyihaning 57 tasi ovoz berish bosqichiga o‘tkazilgan.

Shuningdek, ayrim mahallalarga joriy mavsumda tanaffus berilgandi. Ya‘ni “Tashabbusli budjet” jarayonining 2024-yil 2-mavsumi hamda 2025-yilning 1-mavsumida (ikkita mavsumda ketma-ket) g‘olib bo‘lgan mahallalarga joriy yilgi 2-mavsum va 2026-yilning 1-mavsumida tanaffus berilgan. Iqtisodiyot va moliya vazirligi ma‘lumotiga ko‘ra tanaffus e‘lon qilingan mahallalar soni 823 ta bo‘lib, ular belgilangan muddatda taklif kiritma-olmasa-da, ovoz berish bosqichida to‘liq ishtirok etishi mumkin. Ya‘ni o‘ziga yaqin yoki qo‘shni mahallalarga ovoz to‘plashda ko‘maklashish imkoni mavjud.

Endi ovoz berilmaydimi?

“Tashabbusli budjet” ko‘lami tobora kengayib boryapti. Shu bois, loyihaga e‘tibor ham, takomillashtirishga urinishlar ko‘lami ham katta. Gap Prezidentimizning joriy yil 29-avgustdagi “Tashabbusli budjet jarayonlarini takomillashtirish doirasida xalq vakillari va saylovchilar o‘rtasida hamkorlikni kuchaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori haqida boryapti.

Mazkur qaror bilan “Tashabbusli budjet” doirasida qator yangiliklar kiritilishi belgilangan. Ulardan biri “Deputatlar tashabbusi” amaliyotini joriy etishdir. Endi “Tashabbusli budjet” doirasida g‘olib bo‘lmagan loyihalarni deputatlar tashabbusiga ko‘ra g‘olib deb e‘lon qilish mumkin. Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputatlari har mavsumda g‘olib bo‘lmagan loyihalar orasidan ikkitasini “Ochiq budjet” axborot portali orqali tanlaydi. Ushbu loyihalar avtomatik tarzda g‘olib deb topilib, davlat budjetidan moliyalashtiriladi. Portaldagi deputat tashabbusi asosida moliyalashtiriladigan loyihalar uchun alohida sahifa ochilib, shu turdagi barcha loyihalarining jamoatchilik uchun ochiq ro‘yxati yuritiladi.

Qaror bilan kuchga kirgan yana bir yangilik, “Tashabbusli budjet” loyihalarini aholi va davlat o‘rtasida sheriklik asosida moliyalashtirish imkoniyati yaratilgani bilan bog‘liq. Unga ko‘ra 2026-yildan boshlab ijtimoiy masalalarga oid loyihalarni aholi va davlat o‘rtasida sheriklik asosida moliyalashtirish tartibi joriy etiladi. Agar tashabbuskor aholi tomonidan loyihalar qiymatining 50 foiz qismi ixtiyoriy ravishda moliyalashtirilsa, loyiha avtomatik tarzda g‘olib deb topiladi va qolgan 50 foizi davlat budjetidan moliyalashtiriladi.

Loyihalar ushbu tartibda moliyalashtirilganda ovoz berishda ishtirok etmagan holda g‘olib deb topiladi. Ushbu band aholi orasida “Endi “Tashabbusli budjet”da ovoz berish amaliyoti bo‘lmis ekan” degan noto‘g‘ri fikrlarni ham yuzaga keltirmoqda. Masala yuzasidan Iqtisodiyot va moliya vazirligi rasmiy munosabat bildirdi: “Amaldagi “Tashabbusli budjet” doirasida loyihalarga ovoz to‘plash va eng ko‘p ovoz to‘plagan loyihalar orasidan g‘oliblikni aniqlash amaliyoti saqlab qolinadi hamda ushbu yo‘nalish uchun har yili davlat budjetidan tegishli mablag‘ ajratilishi davom ettiriladi. Qabul qilingan qaror bilan mazkur amaliyotga qo‘shimcha ravishda faol mahallalardan kelib tushgan takliflarni inobatga olgan holda loyihalarni sheriklik asosida moliyalashtirish tartibi joriy etiladi. Bu ixtiyoriy amaliyot bo‘lib, loyihalarini sheriklik asosida moliyalashtirmagan mahallalar an‘anaviy tarzda “Tashabbusli budjet” jarayonida ovoz to‘plagan holda ishtirok etishlari mumkin”.

Joriy etilayotgan yangi tartib amaliyotda qanchalik tez ommalashishini vaqt ko‘rsatadi. Asosiysi, odamlarning “Tashabbusli budjet”da faol ishtirok etib, o‘z hududidagi muammolarni birgalikda hal etishga intilayotganidir. Loyihaning joriy yilgi 2-mavsumi “Tashabbusli budjet — xalq budjeti” shiori ostida o‘tgan zamirida ham shu ma‘no mujassam.

Bir vaqlar ba‘zilarning maslahatiga kirib, boshlagan ishimdan ortga chekinmaganimga shukr idim. Aslida, mehnat qilgan rohat ko‘radi deb bejiz aytmagan. Buni o‘zim amalda ko‘rdim.

Yurt ravnaqi, iqtisodiyotimiz yuksalishi yo‘lida qilingan hech bir harakat besamar ketmas ekan. Mehnatlarim evaziga berilgan mukofot yangi marralar sari odimlashga undadi. Endilikda yanada mas‘uliyat bilan dadil harakat qilmasak bo‘lmaydi. Ishonchni oqlash istagi faqat oldinga intilishimga turtki bo‘lishi shubhasiz.



AGRAR SOHA RIVOJI

YUQORI MALAKALI KADRLARGA BOG'LIQ

Narzullo OBLUMURODOV,
Toshkent davlat agrar universiteti
rektori, iqtisodiyot fanlari
doktori, professor

Prezidentimizning 2023-yil 7-iyuldagi “Agrar sohada ilm-fan, ta’lim va ishlab chiqarishni integratsiya qilish orqali sifat va samaradorlikni oshirishning qo’shimcha chora-tadbirlari to’g’risida”gi va Vazirlar Mahkamasining “Agrar ta’lim tizimining 2030-yilgacha innovatsion rivojlanish strategiyasini tasdiqlash to’g’risida”gi qarorlarida sohada ilm-fan, ta’lim va ishlab chiqarish integratsiyasini ta’minlash, inson resurslarini rivojlantirish va uning salohiyatidan samarali foydalanish, kafolati mehnat bozorini shakllantirish hamda qishloq xo’jaligi oliy ta’limini modernizatsiyalashtirish ustuvor yo’nalishlari belgilab berildi.

Ekspertlar fikricha, malakali kadrlar tayyorlash sifatini oshirish, avvalo, ta’lim yo’nalishlari va mutaxassislar bo’yicha tegishli malaka talablarini xalqaro qabul qilingan o’quv dasturlari hamda standartlari asosida takomillashtirishni taqozo etadi. Bu jarayonda nufuzli OTMlarning 300 taligi reytingidan o’rin olgan Tokio universiteti (Yaponiya), Michigan davlat universiteti (AQSH), Vageningen universiteti (Niderlandiya) kabi yetakchi oliy ta’lim muassasalari o’quv dasturlari tahlil qilinib, Toshkent davlat agrar universitetining 30 ta bakalavriat ta’lim yo’nalishi hamda 59 ta magistratura mutaxassisligi malaka talablari va o’quv dasturlari ilg’or xalqaro standartlarga moslab qayta ishlandi.

Agrar sohada oliy ta’lim sifatini ta’minlash, talabalarining ishlab chiqarish amaliyotini yetakchi korxona va tashkilotlarda tashkil etish, mehnat yarmarkalari o’tkazish hamda ishga joylashishga ko’maklashish bo’yicha maslahat xizmatlarini joriy qilish universitet bitiruvchilarini zamonaviy mehnat bozori talablari asosida tayyorlashda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Qoraqalpog’iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahri hokimliklari, Qishloq xo’jaligi vazirligi hamda tizim tashkilotlari, agrar sohada faoliyat yurituvchi korxona va tashkilotlar bilan malakali mutaxassislar tayyorlash va bandligini ta’minlashga qaratilgan 200 dan ortiq hamkorlik shartnomasi tuzildi.

O’z navbatida, ish beruvchi tashkilot va korxonalar ishtirokida universitet bitiruvchilari uchun muntazam “Karyera kuni” mehnat yarmarkalari tashkil etilmoqda. Joriy o’quv yilida bakalavriat va magistratura bosqichining 2500 bitiruvchisi ishtirokida ish beruvchilar bilan mehnat yarmarkalari va subhtalar uyushtirilib, bitiruvchilarni ishga joylashtirish yuzasidan uch tomonlama shartnomalar imzolandi.



Yangilanayotgan maskan

Toshkent davlat agrar universiteti tomonidan Qoraqalpog’iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, Toshkent, Xorazm, Namangan va Samarqand viloyatlari hokimliklari bilan hamkorlik shartnomalari imzolanib, bitiruvchilarni ish bilan ta’minlash, amaliyot jarayonini tashkil etish, ilmiy-amaliy loyihalarni bajarish borasida keng yo’l ochildi. Masalan, agronomiya, muhandislik, veterinariya yo’nalishida tahsil olgan talabalar o’qishni bitirgach, viloyatlardagi fermer xo’jaliklari, agroklastertlar, qayta ishlash korxonalari va ilmiy-tadqiqot markazlariga yo’naltirildi. Mazkur hamkorlik doirasida universitet olimlari hududlardagi agrar soha muammolarini o’rganib, ularning yechimi bo’yicha ilmiy asoslangan tavsiyalar bermoqda. Masalan, suvtejamkor usullar, intensiv bog’dorchilik, tuproq unumdorligini oshirish bo’yicha ishlarnalar to’g’ridan to’g’ri fermerlar, agroklastertlarga yetkazilmoqda. Talabalar esa amaliyot jarayonida ushbu innovatsiyalarni joylarda qo’llash imkoniga ega bo’lyapti.

Hamkorlik natijasida hududlar o’z imkoniyati va ehtiyojidan kelib chiqib, yosh mutaxassislar uchun yangi yo’nalishlarni ochmoqda. Xususan, Toshkent viloyatida mevachilik, uzumchilik, pillachilik yo’nalishlari, Namangan viloyatida gulchilik, o’rmonchilik va landshaft dizayni, Samarqand viloyatida meva-sabzavotchilik yo’nalishida hamkorlik imkoniyatlari yaratildi. Bu talabalarining zamonaviy kasb ko’nikmalarini hududning aniq ehtiyojlari bilan uyg’unlashtirishga xizmat qilmoqda. Masalan, Namanganda yosh mutaxassislar shahar va qishloqlarda yashil hududlarni kengaytirish loyihalarida ishtirok etsa, Samarqand va Xorazmda meva-sabzavot mahsulotlarini yetishtirish va qayta ishlash, qadoqlash, eksport salohiyatini oshirish jarayonida bevosita qatnashmoqda.

Pillachilik mamlakatimiz agrar sohasidagi muhim tarmoqlardan biri. Har yili bahor fasli kelishi bilan respublikamizda pilla mavsumi boshlanib, Toshkent davlat agrar universitetining ipakchilik va tutchilik kafedrasii professor-o’qituvchilari, 150 dan ortiq talabasi Buxoro, Andijon, Xorazm, Qashqadaryo va Jizzax viloyatlari, shuningdek, Toshkent viloyatining Chinoz, Yangiyo’l, Piskent, Oqqo’rg’on, Bo’ka, O’rta Chirchiq, Yuqori Chirchiq, Bekobod va Ohangaron tumanlarida yangi intensiv tutzorlarni parvarishlash, ipak qurti uchun sifatli, ozuqabop barg tayyorlash, ipak qurti agrotekhnikasini nazorat qilish, kasalliklar hamda zararkunandalarga qarshi kurashish bo’yicha zamonaviy usullarni qo’llash jarayonida faol qatnashmoqda.

Oliy ta’limda nazariya amaliyot bilan uyg’unlashsa, samaradorlik oshadi. Shu bois, talabalarining nazariy bilimini amaliyot bilan bog’lash maqsadida dual ta’lim tizimi qo’llanmoqda. Ayni paytda Agrosanoatni rivojlantirish agentligi, O’rmon xo’jaligi agentligi, “Leo Garden”, “Agro Light Business”, “Multi Flora”, “PROMEAT”, “Safia Cafe & Bakery” kabi 30 dan ortiq yirik korxona bilan hamkorlikda dual ta’lim joriy etildi.

Universitetning “Karyera markazi” orqali talabalarining mutaxassislarga mos bo’sh ish o’rinlari topilib, ish beruvchilar bilan to’g’ridan-to’g’ri bog’lanyapti. Amaliyotda olingan tajriba yoshlarning ishga joylashishini



ancha yengillashtirmoqda. Prezidentimiz ta’kidlaganidek, oliy ta’lim muassasalari bitiruvchilari real iqtisodiyot ehtiyojlariga javob berishi kerak. Yoshlar o’z yo’lini topib, bilim va mahorati bilan yurtimiz taraqqiyotiga hissa qo’shishi zarur.

Davlatimiz rahbarining 2025-yil 14-fevraldagi “Oliy ta’lim tashkilotlari bitiruvchilarining ishga joylashishiga ko’maklashish bo’yicha qo’shimcha chora-tadbirlar to’g’risida”gi qarori asosida oliygohlarda bitiruvchilarning kasbiy ko’nikmalarini bozor talabiga mos shakllantirish, ularning biznes g’oyalarni qo’llab-quvvatlash va ishga joylashishiga ko’maklashish borasida yangi tizim yo’lga qo’yildi. Toshkent davlat agrar universitetida mazkur qaror ijrosi doirasida “Kelajakka

“
Hozirga qadar universitet talabalari tomonidan 78 ta biznes g’oya ishlab chiqilgan bo’lib, ularning 30 dan ortig’i moliyalashtirildi. Loyihalarning umumiy qiymati esa 3 milliard 221 million so’mni tashkil etmoqda.

talabalar turar joyi foydalanishga topshirildi. Shuningdek, yosh olimlar va xodimlarning yashash sharoitini yaxshilash maqsadida 315 xonadonga mo’ljallangan uy-joy majmuasi barpo etilmoqda.

Ilmga asoslangan innovatsion yondashuv

Orolbo’yi hududi tuprog’ining meliorativ holatini tubdan yaxshilash, unumdorligini tiklashga qaratilgan adaptiv, agromeliorativ tadbirlar muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega. Bu borada Orolbo’yi xalqaro innovatsiya markazi bilan hamkorlikda Toshkent davlat agrar universiteti professori M.Omonova boshchiligidagi ilmiy tadqiqot loyihasi amalga



qadam” markazi tashkil etildi. Bu markazda talabalarining startup g’oyalari shakllantirilib, biznes-rejalar tuzishi va amalga oshirishi har jihatdan qo’llab-quvvatlanmoqda.

Hozirga qadar universitet talabalari tomonidan 78 ta biznes g’oya ishlab chiqilgan bo’lib, ularning 30 dan ortig’i moliyalashtirildi. Loyihalarning umumiy qiymati esa 3 milliard 221 million so’mni tashkil etmoqda. Bu, o’z navbatida, talabalar bandligini ta’minlash bilan birga agrar sohada yangi ish o’rinlari ochilishiga xizmat qilyapti.

Keng ko’lamli bunyodkorlik ishlari

Yangi O’zbekiston sharoitida ta’lim sohasiga qaratilayotgan yuksak e’tiborning amaliy natijasini Toshkent davlat agrar universitetidagi keng ko’lamli qurilish va bunyodkorlik ishlarida yaqqol ko’rish mumkin. Qisqa muddatda universitet hududi katta qurilish maydoniga aylandi. Yangi o’quv korpuslari, laboratoriya va yotoqxonalar qad rostlanmoqda. Universitet hududidagi 4 qavatli 1500 o’ringa mo’ljallangan o’quv binosi rekonstruksiya qilindi, 10 ta zamonaviy laboratoriya qayta tashkil etildi, 5 qavatli 1380 o’rinli yangi, zamonaviy o’quv binosi, 500 o’rinli ma’ruza zalari qurilishi yakuniga yetkazilmoqda. Shu bilan birga, fakultet binolari, talabalar turar joylari fasadini yangilash, ma’ruza zalalarini kapital ta’mirlash va zamonaviy jihozlash ishlari bajarilmoqda. Mustaqillik bayrami arafasida davlat-xususiy sheriklik asosida 550 o’rinli zamonaviy

oshirilmoqda. Dunyo bo’ylab jamlangan 170 dan ortiq kunjut navi asosida o’tkazilgan tadqiqotlar natijasida Orolbo’yi hududining iqlim sharoitiga mos, ekologik stress omillariga chidamli, yuqori hosilli va eksportbop “Urganch” va “Kiva” navlari yaratildi. Bu navlar O’zbekiston kunjutining xalqaro bozorda o’z o’rniga ega bo’lishi uchun yo’l ochadi. Shuningdek, amarant o’simligining 74 ta navi introduksiya qilinib, “ICBA-TDAU 1” va “ICBA-TDAU 2” navlariga patent olindi. Joriy yilda Qoraqalpog’istonning Mo’ynoq, Chimboy va Nukus tumanlarida “ICBA-TDAU 1” navi 100 gektar, “ICBA-TDAU 2” navi 50 gektar degradatsiyaga uchragan maydonda ekildi. Natijada ushbu o’simliklar hudud tuprog’ining meliorativ holatini yaxshilash, tuproqning sho’rlanish darajasini kamaytirishga xizmat qilmoqda.

Sholichilik sohasidagi izlanishlar

Yurtimizda ilmiy izlanishlar doirasida qurg’oqchil va issiq tuproq-iqlim sharoitiga mos navlar yaratish, sohaga raqamli qishloq xo’jaligini joriy qilish, innovatsion texnologiyalar asosida ko’chat yetishtirish uslubida asosiy va takroriy ekin sifatida sholi yetishtirishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Bunga ilg’or tajriba to’plagan malayziyalik olimlar bilan hamkorlikni misol keltirish o’rinli. Mazkur hamkorlik doirasida sholining aromatik, sho’rga va noqulay sharoitlarga chidamli beshta — Pulut Hitam 9 (PH9),

MRQ 74, MR 253, MRQ 76, MR 297 navlari hamda “Istiqlo’l”, “Mustaqillik”, “Gulzor” kabi mahalliy navlari ekilib, Sholichilik ilmiy-tadqiqot instituti olimlari bilan birga mahalliy sharoitda tajribalar o’tkazilmoqda.

Hamkorlikning yangi bosqichlari

Universitetning 200 ga yaqin professor-o’qituvchisi akademik mobillik dasturlari, xalqaro amaliyot va malaka oshirish kurslarida ishtirok etish maqsadida Xitoy, Rossiya, Malayziya, Janubiy Koreya, Polsha, Turkiyaning nufuzli oliy ta’lim hamda ilmiy-tadqiqot tashkilotlariga yuborildi. Germaniya, Polsha, Turkiya, Malayziya, Janubiy Koreya, Xitoy va Rossiyaning yetakchi oliy ta’lim va ilmiy-tadqiqot tashkilotlarining 30 dan ortiq professori universitetdagi mashg’ulotlarga jalb etildi. OTMning 20 talabasi Xitoy ta’lim grantini qo’lga kiritib, bir yil davomida akademik almashinuv dasturi asosida tahsil olish uchun Anxoy qishloq xo’jaligi va Shinjon qishloq xo’jaligi universitetlariga yuborilmoqda. Shuningdek, universitetning 4 talabasi Italiyaning nufuzli Tusha universitetiga magistratura bosqichida tahsil olish uchun, yana 2 talabasi esa Erasmus+ loyihasi almashinuv dasturi doirasida o’qish uchun ta’lim grantini qo’lga kiritgan. 2025-yilda 152 talabamiz Xitoy, Polsha, Germaniya, Bolgariya kabi mamlakatlardagi haq to’lanadigan o’quv va ishlab chiqarish amaliyotiga yuborildi. Ushbu yo’nalishdagi hamkorlikni yanada

asalarichilikni rivojlantirish bo’yicha umumiy qiymati 1,2 million dollarga teng bo’lgan loyiha bajarildi. Uning doirasida universitetga 2 ta — asalarichilik va asalarilar uchun oqsilli ozuqa tayyorlash o’quv laboratoriyalari keltirildi. Asalarilar uchun oqsilli ozuqa tayyorlash laboratoriyasi talabalarining nazariy bilimini amaliyotda mustahkamlashga xizmat qilmoqda. Chungnam milliy universiteti (Janubiy Koreya) bilan hamkorlikda bog’dorchilik va tuproqshunoslik yo’nalishlari bo’yicha 2 ta zamonaviy o’quv-ilmiy laboratoriya ochilib, ilmiy-pedagog xodimlar malaka oshirish hamda talabalar uchun almashinuv dasturlarini nazarda tutuvchi, umumiy qiymati 2,5 million dollarlik loyiha amalga oshirilyapti.

Qishloq xo’jaligining dolzarb yo’nalishlari bo’yicha “O’zbekiston — Xitoy”, “O’zbekiston — Turkiya”, “O’zbekiston — Italiya” xalqaro qo’shma ilmiy loyihalar tanlovlarida ishtirok etish uchun 10 dan ortiq ilmiy loyiha tayyorlandi. Shinjon qishloq xo’jaligi akademiyasi bilan hamkorlikda qishloq xo’jaligi ekinlaridan kartoshkaning 6 ta, pomidorning 4 ta, bodringning 2 ta, bulg’or qalampirining 1 ta, ko’katning 5 ta navini yetishtirish bo’yicha ko’rgazmali dala maydonlari tashkil etilib, hamkorlikda yangi ekin navlari va duragaylarni yaratish bo’yicha ilmiy tadqiqot ishlari bajarilmoqda.

Joriy yildan boshlab Shimoli-g’arbiy qishloq va o’rmon xo’jaligi universiteti bilan hamkorlikda “Xitoy tili markazi” faoliyati tashkil etilib, talabalarimizga o’quv kurslari, adabiyotlar va malakali pedagoglar yordamida xitoy tilini puxta o’rganish uchun zarur shart-sharoit yaratilmoqda. Shuningdek, ingliz, yapon, turk tillari markazlari ochilib, universitet talabalari va xodimlari uchun xorijiy tillarni o’rganish imkoniyati kengaymoqda.

Ta’limning xalqaro akkreditatsiyadagi ishtiroki

Universitetda ta’lim sifatini oshirish va xalqaro mezonlarga moslashtirish yo’lida yana bir muhim qadam qo’yildi. Joriy yil 27-iyunda Germaniyaning nufuzli ASIIN xalqaro akkreditatsiya agentligi tomonidan 60810900 — agronomiya (dehqonchilik mahsulotlari turlari), 60811000 — o’simliklar karantini va himoyasi, 60811300 — qishloq xo’jaligi mahsulotlarini saqlash va qayta ishlash texnologiyasi (mahsulot turlari bo’yicha) bakalavriat ta’lim yo’nalishlari xalqaro akkreditatsiyadan muvaffaqiyatli o’tgani to’g’risidagi qaror qabul qilindi va universitetning ta’lim, boshqaruv va ilmiy faoliyati xalqaro standartlarga javob berishi tasdiqlandi. Akkreditatsiya sertifikat 5-yilga berilgan bo’lib, bu ta’lim yo’nalishlariga diplomning xalqaro miqyosda tan olinishi, xorijiy talabalarni jalb qilish, xalqaro grantlar va dasturlarda ishtirok etish, talabalar va professor-o’qituvchilar almashinuvini kengaytirish, bitiruvchilarning xalqaro mehnat bozorida raqobatbardoshligini oshirish imkoniyatini bermoqda.

Yirik novatorlik markazi

So’nggi yillarda tajriba xo’jaligidagi ilmiy izlanishlar doirasida 50 dan ortiq ixtiroga patent olindi. Jumladan, yuqori hosilli, turli tuproq-iqlim sharoitiga moslashgan g’o’za, g’alla, meva-sabzavot ekinlarining yangi navi yaratildi va istiqbolli xorij navlari mahalliy tuproq-iqlim sharoitiga moslashtirildi. Masalan, joriy yilda Xitoyning Shimoli-g’arbiy qishloq va o’rmon xo’jaligi universiteti bilan hamkorlikda Xitoyda yaratilgan olmaning uchta navi introduksiya qilindi va bog’lar barpo etildi. Xitoylik mutaxassislar bilan hamkorlikda ushbu navlarning respublikamiz tuproq-iqlim sharoitiga moslashishi o’rganilib, ularni parvarishlashning zamonaviy agrotekhnologiyasi ishlab chiqilmoqda. Yangi olma navlari hosildorligi, tashishga yaroqliligi, uzoq vaqt saqlanuvchanligi, mevasining sifati ko’rsatkichlari yuqoriligi bilan ham boshqa navlardan ajralib turadi. Ushbu bog’ to’liq hosilga kirganda va agroteknika tadbirlari o’z vaqtida sifatli amalga oshirilganda bir gektaridan o’rtacha 60-70 tonnagacha hosil olindi.

O’quv-ilmiy tajriba xo’jaligida qishloq xo’jaligidagi eng dolzarb bo’lib turgan global iqlim o’zgarishlariga moslashish, ayniqsa, sho’rlangan yerlarda ekin yetishtirish ustida tadqiqotlar olib borilayotganini alohida e’tirof etish joiz. Ayni paytda Sho’rlangan yerlarda biodehqonchilik xalqaro markazi (ICBA-International Center for Biosaline Agriculture) bilan hamkorlikda degradatsiyaga uchragan yerlarda amarant va kinoa o’simliklarini yetishtirish bo’yicha tajribalar o’tkazilmoqda. Kinoa donining bir kilogrammi jahon bozorida o’rtacha 2,1-2,3 dollarni tashkil etib, gektaridan kamida 30 sentner don hosili olinishini inobatga olsak, bu ekinlar qurg’oqchilik va issiqlikka chidamli bo’lib, oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlashda yangi imkoniyatlar eshigini ochishi turgan gap.

O'ZBEKISTON MILLIY MUZEYI

AVLODLAR UCHUN MA'NAVIY KOMPAS

Xalqning o'zligini anglatuvchi ma'naviy va ruhiy uyg'unlikni madaniy identitet deydim. Ushbu ma'naviy to'qima avlodlararo o'tib kelayotgan an'analar va qadriyatlar silsilasida namoyon bo'ladi. Madaniy o'zlik insonlarni birlashtiradi, ularning qalbida umumiy xotira va iftixor tuyg'usini uyg'otadi.

Shu ma'noda, muzeylar madaniy identitetni saqlash va rivojlantirishda beqiyos ahamiyatga ega. Chunki muzeylarning vazifasi faqat artefaktlaru ekspонатlarni ko'rsatish emas. Ular yirik tadqiqot markazi sifatida tarixiy kontekstni qayta anglatadi, ta'lim tizimi bilan birlashib, yosh avlodga katta ko'lamdagi bilimni taqdim etadi. Jamoatchilik bilan muloqot olib boradi va hamma uchun ochiq platforma bo'lib beminnat xizmat qiladi.

Mamlakatimiz mustaqilligi milliy o'zligimizni yuzaga chiqarib, ezgu sa'y-

2017-yildan keyin muzeylar faoliyatining huquqiy asoslari tamomila yangilandi. Bu galgi istiqlol bayrami ham yaxshi yangiliklarga boy bo'lmoqda. Davlatimiz rahbari joriy yil 27-avgust kuni O'zbekiston Milliy muzeyi qurilishiga tamol toshi qo'ydi.

Muzej Madaniyat va san'atni rivojlantirish jamg'armasi shafeligida Yaponiyaning "Tadao Ando Architect & Associates" arxitektura byurosi hamda Germaniyaning "Atelier Brückner" kompaniyasi tomonidan loyihalashtirilgan. Uning tashqi qiyofasi



Tashqi qiyofasi aylana, to'rtburchak va uchburchak shaklda bo'lib, Sharq va G'arb madaniyatini o'zida uyg'unlashtiradi. Majmua uch qavatli muzey, ikki qavatli yerto'la hamda yordamchi binolardan iborat. Xitoyning "CSECE International Construction" kompaniyasi tomonidan quriladi.



harakatlarga asos bo'lib kelmoqda. Mustaqillik sharofigi bilan yurtning asrlar davomida jahon sivilizatsiyasi taraqqiyotiga qo'shgan hisssasi muzey ekspozitsiyalarida o'zining xolisona aksini topdi.

aylana, to'rtburchak va uchburchak shaklda bo'lib, Sharq va G'arb madaniyatini o'zida uyg'unlashtiradi. Majmua uch qavatli muzey, ikki qavatli yerto'la hamda yordamchi binolardan iborat. Xitoyning "CSECE

International Construction" kompaniyasi tomonidan quriladi.

Poytaxtimizda ushbu muzey qurilishiga bag'ishlangan marosimda Prezidentimiz bunday dedi:

— Hamma sohada rivojlanish bilan birga qadriyatlarimizni tiklashga harakat qilyapmiz. Islom sivilizatsiyasi markazi, Imom Buxoriy majmuasi, Olimpiya shaharchasi kabi ulkan inshootlar quryapmiz. Buning zamiridagi asosiy maqsad shuki, bu binolar xalqimizga mulk bo'lib qolishi kerak. Mana endi yana bir tarixiy majmua — O'zbekiston Milliy muzeyi qurilishini boshlayapmiz. Bu muzey uch ming yillik boy tariximizni odamlarga, dunyo hamjamiyatiga va kelajak avlodga yetkazadigan ilm-ma'rifat va madaniyat maskani bo'ladi.

Hozir birgina Toshkentdagi 30 ta muzeyda 1 milliondan ziyod ekspонат saqlanadi. Ularning 100 mingga davlat san'at muzeyida bo'lib, shundan bor-yo'g'i 2400 tasi namoyishga qo'yilgan. Ko'rgazma zalлари yetarli bo'lmagani sababli 97 mingdan ziyod ekspонат omborda saqlanmoqda. Yangi barpo etiladigan majmua esa ushbu masalaning yechimi sifatida mamlakatimizning jahon tarixi va taraqqiyotidagi o'rini yanada

yorqin ko'rsatadi, ko'p yillar insoniyatga xizmat qiladi.

— Davlatimiz qadimdan shakllangan muzeylar tizimini yanada takomillashtirish, xalqning ma'naviy-axloqiy kamolotidagi o'rini oshirish, xalqimizning muzey fondlarida saqlanib kelayotgan boy tarixini, mustaqilligimiz odimlarini aks ettiruvchi noyob, nodir ekspонатlarni asrash, o'rganish, boyitib borish, muzeylarni zamon talablariga mos, yuqori malakali mutaxassislar bilan ta'minlash, jahon muzeyshunosligi tajribasidan keng foydalangan holda zamonaviy texnologiyalarni qo'llash uchun barcha zarur shart-sharoitlarni yaratib berayotir, — deydi Madaniyat va san'atni rivojlantirish jamg'armasi rahbari Gayane Umerova. — Madaniyat sohasi oldin bu darajada qo'llab-quvvatlanmagan, unga burchalik katta sarmoya kiritilmagan. Biz nimaga erishgan bo'lsak, barchasiga Prezidentimizning kuchli qo'llab-quvvatlovi tufayli erishmoqdami. Davlatimiz rahbari haqiqatan tashkilotimizga, undan ham ko'proq salohiyatli, kreativ yoshlarga va madaniyatga sarmoya kiritish aslida kelajakka sarmoya ekaniga ishonadi.

Hozir yaponiyalik taniqli arxitektor Tadao Ando bilan hamkorlikda O'zbekiston Milliy muzeyi, Zamonaviy san'at markazi va boshqa loyihalarni amalga oshirmoqdami. Maqsadimiz bitta — zamon ruhiga mos infratuzilmani kelgusi avlodlarga meros qilib qoldirish. Biz ham mamlakatning ko'p asrlardan buyon hayrat va hayajon o'chog'i bo'lgan Registon maydonidek yangi madaniy merosini yaratmoqchimiz. Toki bu merosga qaragan har bir inson o'zida ikki tuyg'uni: ajdodlar irodasi hamda o'zlikka sadoqatni his etsin. Meros tushunchasi mustahkam shisha ortidagi qadimiy buyumdan kattaroq g'oyani anglatishi mumkinligini uqsin. Madaniy meros bir xalqning ruhi, iztiroblari va orzulari mujassami ekanini tushunsin. Zero, u kimligimizni belgilaydi, tarix oldidagi mas'uliyatimizni qayta va qayta eslatishdan charchamaydi.

Bunday mahobatli muzey yurtimiz tarixida ilk bor barpo etilmogda. Umumiy maydoni 40 ming kvadrat metr bo'ladi. Ko'rgazma zalлари, kutubxona, restavratsiya laboratoriyalari hamda ekspонатlarni saqlash xonalarida eng zamonaviy qulayliklar yaratiladi. Bu orqali hozir poytaxtimizning turli muzeylarida

tarqoq joylashgan tarixiy ashyolar, ko'hna va zamonaviy san'at asarlarini yaxlit ko'rish mumkin.

Umuman, muzeyda bir vaqtning o'zida 10 mingga yaqin ekspонатni namoyish qilish imkoniyati yaratiladi. Bundan tashqari, 4000 kvadrat metr maydonda konferensiya zalлари, auditoriya va restoranlar, bolalar maydonchalari joylashadi.

Muzey ishga tushsa, atrofidagi Abulqosim madrasasi, Xalqaro do'stligi saroyi va O'zbekiston Milliy bog'i bilan bir joyda yaxlit me'moriy kompozitsiyaga aylanadi. Yurtdoshlarimiz va xorijiy sayyohlar tashrif buyuradigan tematik turizm maskani bo'ladi. Kelajakda dunyoga mashhur Luvr, Metropolitan va Britaniya muzeylari bilan yaqindan hamkorlik o'rnatilib, ushbu muzeyga noyob ekspонатlar olib kelinadi va ko'rgazmalar tashkil qilinadi.

Ushbu muzey ertaga turizmdan tortib, kichik biznes, hunarmandchilikka ham bo'lgan qator sohalar uchun "katalizator" vazifasini o'tashi mumkin. Boisi, bugun biznesda ko'p narsa madaniy tendensiyalarga moslashmoqda. Masalan, taniqli rassomlar muayyan hududga joylasha boshlagach, ular ortidan kafelar, restoranlar ochiladi, u yerga yangi odamlar guruhi keladi va madaniyat o'sha hududlarning qadriini oshira boshlaydi. Shu tariqa jentrifikatsiya jarayoni boshlanadi.

Misol qilib Biliboldagi Guggenxaym muzeyini keltirish mumkin. Mashhur arxitektor Frenk Geri binosi ochilgandan so'ng kichik baliqchilar shahri butunlay o'zgaradi: rassomlar ustaxonalari ochildi, assistentlarga, hunarmandchilik mahsulotlarini ishlab chiqarishga, art kafelar, studiyalar, galereyalarga talab paydo bo'ldi.

Bu madaniyat shahar qiyofasini tubdan o'zgartirishga qodirligining ajoyib namunasidir. Xuddi shunday Toshkentdagi Milliy muzey ham bitgach, nafaqat madaniy turizm sohasida, balki yangi ish o'rinlarini yaratishda ham transformatsiya manbai bo'lishi mumkin. Shunday qilib, 2028-yilda ochildi rejalashtirilayotgan mazkur maskan mamlakatning yangi madaniy ramziga aylanishi kutilmoqda.

Tadao Ando me'morchiligi minimalizm va yorug'lik bilan uyg'unlik falsafasiga asoslanadi. Yangi bino nafaqat keng ko'lamli ko'rgazma zalларini, balki zamonaviy kutubxona va "jamot maydoni"ni ham o'zida mujassam etadi. Muzey ekspozitsiyasini yaratayotgan olmon dizayn studiyasi "Atelier Brückner" esa qadimiy arxeologik topilmalardan tortib, zamonaviy san'at namunalarigacha bo'lgan boy merosni jamlaydi.

Milliy muzey nafaqat me'moriy durdona, balki xalqaro madaniy muloqot markazi sifatida ham qad rostlaydi. U O'zbekistonning boy merosi va ijodiy salohiyatini butun dunyoga ochib beradigan yangi madaniy ko'priikka aylanadi.

Azizbek YUSUPOV,
"Yangi O'zbekiston" muxbiri

BAXT – INTILGANNIKI, G'ALABA – KURASHGANNIKI!

Mustaqilligimizning 34-yilligi munosabati bilan Prezidentimiz yo'llagan bayram tabrigini katta hayajon bilan tingladik. O'tgan yillarda erishilgan natijalar, qo'lga kiritilgan yutuq va muvaffaqiyatlar sarhisobi bilan birga kelgusidagi istiqbolli rejalar ma'lum qilindi.

Xalqimiz jahonga bo'ylamoqda, boy tarixi va madaniyati, yangi-yangi zafarlari bilan dunyo afkor ommasining e'tirofiga sazovor bo'lmoqda. O'zbekiston islom sivilizatsiyasi markazi, Imom Buxoriy me'moriy majmuasi, Olimpiya shaharchasi kabi inshootlar istiqlol sabab xalqimizga qaytarilayotgan meros, o'zbekning o'zligi namoyoni, shuningdek, tarix solnomasida zarhal harflar bilan yoziladigan san'at asarlaridir.

Bunday xayrli ishlarning davomi sifatida poytaxtimizda O'zbekiston milliy muzeyi qurilishiga asos solingan ulkan voqea bo'ldi. Muzey tarhida o'zbek xalqi etnografiyasi, arxeologiyasi, san'ati, adabiyoti, qo'yimgki, moddiy va ma'naviy madaniyati o'z aksini topadi.

Bugun xalqimiz o'zining uch ming yillik boy tarixi va madaniyatini qaytadan kiritmoqda. Ota-bobalarini tanimogda, boy merosini o'qish, o'rganish va anglash imkoniga ega bo'lmoqda. Yurtimiz zaminidagi Birinchi va Ikkinchi Renessans an'alarini rivojlantirib, Uchinchi Renessans sari dadil amaliy qadamlar qo'yilmoqda. So'nggi yillarda ilm-fan, ta'lim, madaniyat va san'at sohasidagi sharoitlar, mislsiz imkoniyatlar bo'lg'usi uyg'onish davri uchun mustahkam zamin vazifasini o'tayotir.

Qachonki xalq o'z tarixi, merosini chuqur anglasa, undan faxr va iftixor tuyg'ularini his etsa, katta maqsadlarni amalga oshirishga qodir bo'ladi. Millatimiz g'ururi, or-nomusi, ahd-u shijoati, mardligi-yu vatanparvarligi aks etgan xalq og'zaki ijodi namunalari — dostonlar, laparlar,



Munosabat

maqom va milliy musiqalarni chuqur o'rganish, xalqimizni milliy g'urur bilan to'yintirish, ma'naviyatini yuksaltirishga e'tibor qaratilmoqda. Asrlar davomida saqlab kelinayotgan go'zal an'analar, umrboqiy qadriyatlarimiz xalqimizga qaytarish va barhayotligini ta'minlashga harakat qilinmoqda. Shu maqsadda Shahrisabzda maqom, Xorazmda lagzi, Qo'qonda hunarmandchilik, Buxoroda zardo'zlik va zargarlik, Boysunda baxshichilik festivallari an'anaviy o'tkazilayotgani diqqatga sazovor.

O'zbek xalqi boy moddiy va nomoddiy madaniy merosiga ega. Bunday ulkan ma'naviy salohiyatdan unumli

foydalanish, sayyohlikning etnoturizm, gastroturizm, qishloq turizmi, safari turizm, ziyorat turizmi, ekstremal turizm kabi yangi turlarini rivojlantirish evaziga barqaror va tuganmas boylikka ega bo'lish, xalqimizning iqtisodiy hayotini yaxshilash, farovon turmushini ta'minlash, shu bilan birga, o'zbek milliy brendi orqali dunyo sayyohlarini mamlakatimizga chorlash, turizm chorrahasi sifatidagi o'rini yanada oshirish mumkin. Birgina misol, Buxoro — Jahon hunarmandlari shahri sifatida, shuningdek, UNESCOning ijodkor shaharlari qatorida e'tirof etildi. Joriy yil 5-sentabridan 20-noyabriga qadar Buxoro shahrida xalqaro zamonaviy san'at

biyennalesi o'tkaziladi. Prezidentimiz qaroriga muvofiq, mazkur biyennale ikki yilda bir marta an'anaviy tashkil etiladi. Mazkur tashabbus ham qadimiy shaharlarimiz, boy madaniyatimiz, amaliy san'at namunalari orqali O'zbekistonni dunyoga yanada tanitish, Markaziy Osiyodagi ilm-ma'rifat, san'at va turizm xabiga aylantirishga qaratilgan.

Bugun dunyo shiddat bilan rivojlanib bormogda, katta o'zgarishlarga yuz tuypti. Ayni shunday pallada O'zbekiston ham iqtisodiy, ham ilmiy-ma'rifiy makonda mustahkam o'ringa ega bo'lib bormogda. To'g'ri siyosat, oqilona diplomatiya, yaqin qo'shniçilik, do'stona munosabatlar mamlakatimizning tashqi imiji yanada yaxshilanishiga sabab bo'layotir.

Davlatimiz rahbari bayram tabrigida navqiron avlodga murojaat qilib, jumladan, bunday dedi: "Aziz farzandlarim, doimo yodda tuting: baxt — intilganniki, g'alaba — kurashganniki! Kelajakni mardlar, tarixni g'oliblar yaratadi. Hamisha oldinga qarab intiling, bahodir o'g'lonlarim, oqila qizlarim! Sizlarning ezgu ishlaringizda Vatan, xalq, Prezident barchangizga hamisha ishonçli tayanch va suyanch bo'ladi".

Bunday otashin va mehrli so'zlar aholining 60 foizdan ortig'ini tashkil etadigan yoshlarga chinakam ruh, shijoat, kuch va jasorat bag'ishlashi shubhasiz. Chunki ularning ilm-ma'rifat marallarini zabt etishi uchun davlatimizning o'zi homiylik qilmoqda. Binobarin, shonli tariximizdagi renessanslarga ham adolatli hukmdorlarning ilm-fanga homiyligi, ma'rifatga oshnoligi, olimlarga xayrixohligi asosiy zamin bo'lgan. Bugun ezgu niyatlar ila qo'yilayotgan qutlug' qadamlar, ta'limga, ilmga berilayotgan imtiyoz, sharoit va imkoniyatlar Uyg'onish davri takrorlanishiga sababchi bo'ladi, albatta.

Shavkat BOBOJONOV,
Madaniyathunoslik va nomoddiy madaniy meros ilmiy-tadqiqot instituti bo'lim boshlig'i, tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori

Saydali ODILOV,
O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a'zosi

Ulg'ayib kamolotga intilayotgan har bir shaxsning ko'nglida o'zi anglagan yo anglamagan holda, Vataniga, millatiga, jonajon xalqiga munosib farzand bo'lishdek ezgu niyat yashaydi. Darhaqiqat, bu yorug' olamda hech kim yomon bo'lishni istamaydi.

YURTINI SEVGAN ASLO KAM BO'LMAYDI

Vatanimiz mustaqilligining 34 yillik bayrami shodiyonalari "Vatan uchun, millat uchun, xalq uchun!" degan bosh g'oya asosida o'tkazildi. Buning mazmuni juda teran.

Bu shior beixtiyor ajdodlarimizni yodga soladi. Ularning yurt ozodligi yo'lidagi fidoyiliklarini ko'z oldimizda gavdalantiradi. Ayniqsa, bu o'rinda jadid bobolarimizning hayoti va so'zlari ibratlidir.

"Agar hayotimiz hurriyat va xalq saodati uchun qurbonlik sifatida kerak bo'lsa, biz o'limni ham xursandlik bilan kutib olamiz", degan edi ma'rifatparvar bobomiz Mahmudxo'ja Behbudiy. Yoki eshitganim — jadidlar jallodi Trigulov huzuridagi so'roqda uchrashib qolgan Abdulhamid Cho'lpon va Ashurali Zohiriyning suhbatiga e'tibor bering.

— Ashurali baki, — deydi Cho'lpon, — taqdirimiz ne bo'lishini bilmasam. Ammo shuniisi ayonki, biz behuda yashamadik. Hayotimiz, bitiklarimiz avlodlarga tatigulik yo'llarni ko'rsatir degan umiddaman.

Bu so'zlar ularning mustahkam e'tiqodidan dalolat, o'zlari uchun taskin, yaqinlari uchun esa yupanch edi.

Xalqimiz tarixiga nazar solsak, uning har bir kuni ibratga to'la. Katta Farg'ona kanali qurilishida xalqimiz namoyon etgan harakat, kuch-qudratni olaylik. Ikki yuz ellik kilometrdan ziyod bu ulkan inshootning odyiy qo'l kuchi, ketmon va zambil bilan bunyod etilishi qaysi ehom qurilishidan kam?

Yoki Ikkinchi jahon urushi yillarini eslaylik: olti millioningina aholisi bo'lgan yurtimiz o'z farzandlarining to'rtidan birini frontga yubordi. Ularning qanchasi urush qurboni bo'ldi, qanchasi qahramon unvoni bilan qaytdi! Har ikki holatda ham yurtdoshlarimiz shu Vatan uchun, shu millat uchun, shu xalq uchun jon olib, jon bermadimi?!

Iftixor



Yurtimiz farzandlarining bu kabi jasoratini hikoya qilish uchun farzandlarga holatlar bo'lishi shart emas. Farg'onaning Oltiariq tumanidagi bir vaqlar "qarg'ish tekkan" deya ta'riflangan Enajar qumlog'ini "Nurl obod"ga aylantirgan Lora Murotovaning mehnati afsonalarga, yangi asarlarga mavzu bo'ldi.

Yana o'sha Farg'onaning Quva tumanidan chiqqan Masturaxon Sayfiddinovani olaylik. U hali o'smirlk chog'idayoq qirq dugonasiga bosh-qosh bo'lib, Quva adirlarida anorzor barpo etishni niyat qildi. Uning niyati ulkan bor'larga, yirik xo'jalikka aylandi.

Vatan, millat, xalq farzandi Masturaning parvozi baland bo'ldi. Uning sa'y-harakati bilan bugun Surxon kengliklarida 5000 gektar, Sirdaryo va Jizzax cho'llarida esa 400-500 gektarlab anorzorlar tashkil etildi. Bu mehnat zamirida o'sha — "Vatan uchun, millat uchun, xalq uchun!" degan g'oya mujassamligi kundek ayon.

Bu bitiklar xalqimizning b'zi fidoyi farzandlari faoliyatidan lavhalar, xolos. Bunday insonlar jonajon O'zbekistonimizning har bir go'shasida bor va hatto ular juda ko'p. Chunki yurtini sevgan kishi aslo kam bo'lmaydi. Xalqini ardoqlagan davlat obod, farovon va qudratli bo'ladi. Buning yorqin misoli sevimli O'zbekistonimizdir.

“Yangi O‘zbekiston” va “Правда Востока” gazetaları tahririyati” DM

MUASSIS:
**O‘zbekiston Respublikasi
Vazirlar Mahkamasi**

Bosh muharrir:
Salim DONIYOROV

Tahririyatga kelgan qo‘lyozmalar taqriz qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.
Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.
Gazeta tahririyat kompyuter markazida sahifalandi.
Gazetaning poligrafik jihatdan sifatl chop etilishiga “SHARQ” NMAK mas’ul.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020-yil 13-yanvarda 1047-raqam bilan ro‘yxatga olingan.
Nashr indeksi — 236. Buyurtma — G-946.
34830 nusxada bosilgan.
Hajmi — 3 taqob. Ofset usulida bosilgan. **Qog‘oz bichimi** A2. Bahosi kelishilgan narxda.

Navbatchi muharrir: Jonibek Alijonov
Musahhih: Nasiba Abdullayeva
Dizayner: Xurshid Abdullayev

Manzillimiz:
100060, Toshkent shahri,
Shahrisabz ko‘chasi, 85-uy